

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI
IJTIMOIY-IQTISODIYOT FAKULTETI**

**Bitiruv malakaviy ishi
himoyaga tavsiya etildi**
“Ijtimoiy ish” kafedrası
mudiri, f.f.n. dots. L.N.Jo`rayev

“ ” 2015-yil

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**Mavzu: Vasiylik va homiylik organlarining ota-ona qaramog`isiz qolgan
bolalarni ijtimoiy himoyalalashdagi o`rni**

Bajardi: 5520100 – “Ijtimoiy ish”
yo`nalishi 4-bosqich talabasi
Achilova Gulchexra Uktamovna

Ilmiy rahbar: “Ijtimoiy ish” kafedrası
o`qituvchisi Z.R.Ergashev

SAMARQAND – 2015

M U N D A R I J A

Kirish.....	
I-BOB. Ota-ona qaramog`isiz qolgan bolalarni ijtimoiy himoya qilishning nazariy asoslari.....	3-6
1.1. “Vasiylik va homiylik” hamda “ota-ona qaramog`isiz qolgan bolalar” masalalariga taalluqli tushunchalar va ularning mohiyati.....	7-16
1.2. Ota-ona qaramog`isiz qolgan bolalar muammolariga bog`liq masalalarning tadqiqotlardagi talqini.....	17-26
 II-BOB. Ota-ona qaramog`isiz qolgan bolalar bilan ijtimoiy ish olib borishning huquqiy asoslari.....	 27-46
2.1. Ota-ona qaramog`isiz qolgan bolalarni ijtimoiy himoyalash masalalarining xalqaro va milliy qonunchilik normalarida aks ettirilishi.....	27-35
2.2. Ota-ona qaramog`isiz qolgan bolalarga vasiy va homiy tayinlash hamda ularni farzandlikka, oilaga tarbiyaga berish tartibi.....	36-46
 III-BOB. O`zbekistonda vasiylik va homiylik organlarining ota-ona qaramog`isiz qolgan bolalarni ijtimoiy himoyalashdagi o`rnini takomillashtirish masalalari.....	 47-63
3.1. Ota-ona qaramog`isiz qolgan bolalarni ijtimoiy himoyalash jamiyat barqarorligi omili sifatida.....	47-55
3.2. Mamlakatimizda vasiylik va homiylik organlarining ota-ona qaramog`isiz qolgan bolalarni ijtimoiy himoyalashdagi o`rnini sotsiologik tadqiqotlar asosida takomillashtirish.....	56-63
 Xulosa.....	 64-67
 Adabiyotlar ro`yxati.....	 68-72
 Ilovalar.....	 73-80

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Har jihatdan barkamol boʻlgan sogʻlom avlodni shakllantirish muammosi bugungi kunda davlatimiz oldida turgan dolzarb masalalardan biri boʻlib hisoblanadi. Chunki har qanday davlatning taraqqiyoti kelajak poydevori boʻlgan yosh avlodga, ular tarbiya topayotgan oilaviy muhitning sogʻlomligiga, mustahkamligiga uzviy bogʻliqdir. Istiqlol yoʻlidan ildam odimlayotgan mamlakatimiz bolalarni samarali ijtimoiylashuvini taʼminlash maqsadida dastavval oilada salbiy taʼsir koʻrsatuvchi omillarni oʻz vaqtida bartaraf etishga, har jihatdan sogʻlom boʻlgan avlodni tarbiyalab oʻstirishga eʼtibor qaratmoqda.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov taʼkidlaganidek, “Ijtimoiy siyosatni amalga oshirishda sifat jihatidan yangi bosqich, yaʼni ijtimoiy himoyalash vositasini chuqurlashtirish, uni oʻzgarib borayotgan sharoitlarga moslashtirish zarurati chinakam yetildi”¹.

Bugungi kunda himoyaga muhtoj bolalarni, jumladan ota-ona qaramogʻisiz qolgan bolalarni ijtimoiy himoyalash masalasi davlat siyosati darajasidagi masalalarga aylanib borayotgan bir davrda ularni ijtimoiy himoyalash vazifasi turli darajadagi tashkilot va muassasalarning diqqat eʼtibori markazidagi masalalar qatoriga kirib bormoqda. Yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqib, mavzuning dolzarbligi quyidagilar bilan belgilanadi:

Birinchidan, bugungi kunda mamlakatimizda ota-ona qaramogʻisiz qolgan bolalar soni koʻpayib qoldi. Bunday holat jamiyatimiz, davlatimiz kelajagiga salbiy taʼsir koʻrsatishi mumkin, chunki barcha bolalar davlatning,

¹ Karimov I.A. Oʻzbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. –Jild.1 –T.: Oʻzbekiston, 1996. –B. 327

jamiyatning kelajagi hisoblanishadi. Ular voyaga yetishgach, o`sha davlatning, o`sha jamiyatning asosiy boshqaruvchilari bo`lishadi;

Ikkinchidan, ota-ona qaramog`isiz qolgan bolalarni ijtimoiy himoyalash bugungi kunda Mehribonlik uylari rahbar hamda pedagog xodimlari faoliyatining asosiy mazmun va mohiyatiga aylanib bormoqda, ammo mazkur muassasa bitiruvchilari kelgusida mustaqil hayotga moslashish jarayonida muammolarga duch kelmoqdalar;

Uchinchidan, ota-ona qaramog`isiz qolgan bolalarni joylashtirishning muqobil shakllarining tashkillashtirilishi masalalariga oid jahon tajribasini o`rganish hamda mahalliy va milliy imkoniyatlardan kelib chiqqan holda jahon tajribasi yutuqlarini amaliyotga keng joriy qilish zamon talabiga aylanib bormoqda.

**Mavzuning o`rganilganlik darajasi.** Ota-ona qaramog`isiz qolgan bolalarni ijtimoiy himoyalashda vasiylik va homiylik organlarining o`rni bilan bog`liq tadqiqot yagona kompleks tadqiqot sifatida o`rganilmagan bo`lsada, ammo u bilan bog`liq yoki uning atrofidagi masalalar xorij va mamlakatimiz olimlarining qator ilmiy tadqiqot ishlarida u yoki bu darajada o`z aksini topgan.

Jumladan, xorijda A.Freyd¹, R.Bernis², Y.Langmeyer va Z.Mateychek³, S.A.Dzenushkayte⁴, M.N.Akimova⁵, N.P.Ivanova va O.V.Zavodilkinalar⁶, mamlakatimizda esa A.X.Saidov⁷, Sh.Yuldasheva va A.Qurbonovlar⁸, E.To`xtamurodov<sup>9</sup>, U.Asqarova<sup>10</sup>, S.X.Tadjiyeva<sup>11</sup>, D.G`.Sobirova¹² va

¹ Фрейд А. Разлука с матерью. Лондон. 1965, перевод с. англ. –М., 1970.

² Бернис Р. Развитие Я-концепции и воспитание. –М., 1986.

³ Лангмейер Й., Матейчик З. Психическая депривация в детском возрасте. Прага, 1984.

⁴ Дзенушкайте С.А. Наш дом. М., 1987.

⁵ Акимова М.Н. Организация работы с приёмными семьями. Самара, 1998.

⁶ Иванова Н.П., Заводилкина О.В. Дети в приёмной семье: Советы начинающим родителям. М., 1993.

⁷ Saidov A.X. Bola huquqlari monitoring. O`quv-uslubiy qo`llanma. -T.: Inson huquqlari bo`yicha O`zbekiston Respublikasi Milliy Markazi, 2011.

⁸ Yuldasheva Sh., Qurbonov A. Ota-ona qaramog`idan mahrum bo`lgan bolalar huquqlarini himoya qilish. –T.: TDYuI, 2006.

⁹ To`xtamurodov E. Bolalar uylari tarbiyalanuvchilarini oilaviy hayotga tayyorlashning ijtimoiy va pedagogik asoslari. ped.f.n. ...dis. –T., 1994.

¹⁰ Asqarova U. Mehribonlik uyi o`smirlarida milliy g`ururni tarbiyalashning pedagogik asoslari. ped.f.n. ...dis. –T., 2001.

¹¹ Tadjiyeva S.X. Yetim va ota-ona qaramog`isiz qolgan bolalarning ijtimoiylashuvi masalalari. // Bola va zamon. №1, 2010.

¹² Sobirova D.G`. Qay biri ma`qul: Patronat oila yoki Mehribonlik uyi? // Bola va zamon. №3, 2006.

boshqalar o'z ilmiy izlanishlarida ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalarning huquqlarini himoya qilish, bolalarni joylashtirishning muqobil shakllari, ularni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, oilaviy hayotga tayyorlash kabi masalalarini o'rganib chiqishgan.

Bitiruv malakaviy ishining maqsad va vazifalari. Ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalarni ijtimoiy himoyalashda vasiylik va homiylik organlari faoliyatini yanada takomillashtirish va amaliyotga joriy etishning ilmiy asoslarini nazariy va amaliy jihatdan tadqiq etish bitiruv malakaviy ishining maqsadi bo'lib hisoblanadi. Shu ma'noda, mazkur maqsadni amalga oshirish yo'lida quyidagi hollar bitiruv malakaviy ishining asosiy vazifalari qilib belgilab olindi:

- “Vasiylik va homiylik” hamda “ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalar” masalalariga oid tushunchalarga ta'rif berish;
- Ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalar muammolariga taalluqli tadqiqotlarni o'rganish va ularni tahlil qilish;
- Ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalarni ijtimoiy himoyalashga taalluqli xalqaro va milliy qonunchilik normalarini o'rganish;
- Ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalarga vasiy va homiy tayinlash hamda ularni farzandlikka, oilaga tarbiyaga berish tartibini o'rganish;
- Ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalarni ijtimoiy himoyalashda vasiylik va homiylik organlarining o'rni takomillashtirishga oid taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Bitiruv malakaviy ishining ob'yekti. Vasiylik va homiylik organlari bitiruv malakaviy ishining ob'yekti bo'lib hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishining predmeti. Ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalarni ijtimoiy himoya qilish, ular bilan ijtimoiy ish olib borishda vasiylik va homiylik organlarining o'rnini o'rganish jarayoni bitiruv malakaviy ishining predmeti bo'lib hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishining nazariy va metodologik asoslari. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik

kodeksi, O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi, ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalarni ijtimoiy himoya qilish masalalariga taalluqli huquqiy-normativ hujjatlar, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov asarlari, mamlakatimiz va xorijiy mamlakatlar olimlarining mavzuga oid adabiyotlarda ilgari surilgan qarashlari ushbu mavzuni yoritishda nazariy va metodologik asos qilib olindi.

Bitiruv malakaviy ishida qo'llanilgan uslublarning qisqacha tavsifi.

Tadqiqot ishida ilmiy bilishning turli bosqichlarida qo'llaniladigan hujjatlarni o'rganish va umumlashtirish, sotsiologik so'rovnoma, tarixiy-qiyosiy tahlil, statistik kabi uslublarga tayanildi.

Bitiruv malakaviy ishining nazariy va amaliy ahamiyati. Bitiruv malakaviy ishida vasiylik va homiylik organlari faoliyati hamda ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalarni ijtimoiy himoyalashga yo'naltirilgan nazariy, huquqiy, ilmiy-metodik qarashlar tahlil etilgan bo'lib, unda ilgari surilgan fikrlar, g'oyalar, omil va vositalar ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalar bilan ish olib boruvchi mutasaddi davlat va nodavlat tashkilotlari faoliyatida, o'quv, ilmiy-tadqiqot jarayonida foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy yangiligi. O'zbekistonda ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalar bilan ijtimoiy ish olib borishni takomillashtirish muammolarining ijtimoiy va siyosiy fanlar nuqtai nazaridan birgalikda ilmiy o'rganilib, tahlil qilinganligi ishning ilmiy yangiligidir. Bitiruv malakaviy ishida "Mamlakatimizda vasiylik va homiylik organlarining ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalarni ijtimoiy himoyalashdagi o'rnini takomillashtirish" mavzusidagi sotsiologik so'rovnoma o'tkazilib, uning natijalari tahlil qilinib, bu sohadagi mavjud muammolar va ularni bartaraf etish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi. Bitiruv malakaviy ishi kirish, uchta bob, oltita paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat.

I-BOB. OTA-ONA QARAMOG`ISIZ QOLGAN BOLALARNI IJTIMOIY HIMOYA QILISHNING NAZARIY ASOSLARI

1.1. “Vasiylik va homiylik” hamda “ota-ona qaramog`isiz qolgan bolalar” masalalariga taalluqli tushunchalar va ularning mohiyati

Vasiylik – ota-ona qaramog`isiz qolgan kichik yoshdagi (14 yoshgacha bo`lgan voyaga yetmaganlar)ni oilaga joylashtirish shakli, shuningdek, sud tomonidan ruhiy og`ishish natijasida muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqaroning huquq va manfaatlarini himoyalash shakli. Vasiy uning vasiylikdagi shaxs nomidan, ba`zi vaziyatlarda esa faqat vasiylik va homiylik organi roziligi bilangina bitimlarni amalga oshiradi. Vasiylikdagi insonning sog`lig`i va mulki, shu jumladan, vasiylikdagi voyaga yetmaganning ta`limi va tarbiyasi haqida qayg`urish vasiyning majburiyatlariga kiradi.

Homiylik – ota-ona qaramog`isiz qolgan 14 yoshdan 18 yoshgacha bo`lgan voyaga yetmaganning sog`ligi holatiga ko`ra mustaqil ravishda o`z huquqlarini amalga oshirish va majburiyatlarini bajarish imkoniyatiga ega bo`lmagan voyaga yetganlarning, spirti ichimliklar va giyohvandlik vositalariga ruju qo`yganligi natijasida sud orqali muomala layoqati cheklangan, deb topilgan shaxslarning shaxsiy huquq va mulkiy manfaatlarini himoyalash shakli¹.

Vasiylik va homiylik – yetim va ota-ona qaramog`isiz qolgan bolalarga g`amxo`rlik ko`rsatish, ularni ta`minlash, ta`lim va tarbiya berish, shuningdek, ularning huquq va manfaatlarini himoyalash maqsadidagi bolalar huquqlari himoyalinishi va qonun bilan himoyalangan manfaatlarining ta`minlanishi shakli.

¹ Sobirova D.G., Axundjanova S.A., Tadjiyeva S.X., Yuldasheva M.B. Bolalarni joylashtirishning muqobil shakllari. O`quv-uslubiy qo`llanma. –T.: “JAHON PRINT”, 2012. –B. 87

Farzandlikka berish – yetim va ota-ona qaramogʻisiz qolgan bolani qarindoshlik huquqi bilan oilaga qabul qilish shakli. Farzandlikka olinish vaqtida boquvchisini yoʻqotganlik uchun pensiya yoki nafaqa olish huquqiga ega boʻlgan voyaga yetmaganlar farzandlikka olingan taqdirda ham ana shu huquqni saqlab qoladilar. Farzandlikka berish yetim va ota-ona qaramogʻisiz qolgan bolalarni joylashtirishning eng maʼqul shakli hisoblanadi.

Patronat – bolalarni oilaga joylashtirish shakllaridan boʻlib, bunda bola oilaga vakolatli organ (vasiylik va homiylik organi nazoratchisi) hamda tarbiyachilik majburiyatini oʻz boʻyniga oluvchi shaxs (boʻlgʻusi tutingan ota yoki ona) oʻrtasidagi shartnoma asosida beriladi.

Patronat tarbiyachi – vasiylik va homiylik organi bilan patronat tarbiya yoki ijtimoiy patronatni amalga oshirish boʻyicha shartnoma asosida bolaning tarbiyasini amalga oshiruvchi hamda bolaning huquq va qonuniy manfaatlarini himoyalovchi voyaga yetgan muomalaga layoqatli shaxs.

Foster (ing.) - qabul qilib oluvchi oila¹.

Foster oila – qiyin hayotiy vaziyatda qolgan bolalarni reabilitatsiya qilish maqsadida, qondosh oilasida vaziyatning oʻzgarguniga qadar oilaga vaqtincha joylashtirishning muqobil shakli boʻlib, u baʼzi obʼyektiv sabablarga koʻra bolani farzandlikka berishning imkoni boʻlmagan vaziyatlarda qoʻllaniladi. Foster oilaga bola fuqarolik-huquqiy shartnoma asosida berilib, baʼzi mamlakatlarda foster tarbiyachi va bolani joylashtirish xizmati oʻrtasida qoʻshimcha ravishda mehnat shartnomasi ham tuziladi. Vasiylikning mazkur shakli chet el mamlakatlari, jumladan AQSh, Buyuk Britaniya va boshqa mamlakatlar tajribasida keng qoʻllaniladi.

Ota-ona qaramogʻisiz qolgan bolalar har qanday sababga koʻra ota-ona qaramogʻidan mahrum boʻlgan bolalar boʻlib hisoblanadi. Yetim bolalar bundan mustasno, chunki yetim bolalar - otasi ham, onasi ham vafot etgan yoki ular sud qaroriga binoan vafot etgan, deb eʼlon qilingan bolalardir.

¹ Oʻzbekistonda patronat tarbiyaning tashkil etilishi va uning tahlili. Axundjanova S.A. tahriri ostida. RBIMM. T., 2007. –B. 42

Ota-ona qaramog`isiz qolgan bolalar - ota-onasining mavjud emasligi, ular ota-onalik huquqlarining qisman cheklanganligi yoki mahrum etilganligi, bedarak yo`qolgan yoki muomala layoqati cheklangan (qisman cheklangan) deb topilganligi sababli yagona yoki har ikki ota-onasi qaramog`isiz qolgan bolalardir.

Ota-ona qaramog`isiz qolgan bolalar - tibbiy muassasalarda davolanayotgan ota-onalarning farzandlari, ozodlikdan mahrum qilish asosida jazoni o`tash muassasalarida yoki qamoqda saqlanilayotgan, jinoyatni amalga oshirganligi haqida gumon qilinayotgan va jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan ota-onalarning bolalari, farzandlarini tarbiyalashdan yoki ular huquq va manfaatlarini himoyalashdan, o`z farzandlarini tarbiya, davolash va boshqa muassasalardan qaytarib olishdan bosh tortayotgan ota-onalarning farzandlaridir¹.

Ijtimoiy yetim - biologik ota-onasi mavjud bo`lgan holda ota-ona e`tibori va mehridan bebahra qolgan bolalardir².

Ijtimoiy yetimlar deganda, voz kechilgan bolalar, tashlandiq bolalar, ota-onalik huquqidan mahrum etilgan yoki sud tomonidan muomalaga layoqatsiz (ruhiy kasallik sababli) deb topilgan ota-onalarning farzandlari, ota-onasi ozodlikdan mahrum etish muassasalarida jazoni o`tayotgan yoki turar joyi va qayerdaligi noma`lum bo`lgan ota-onalarning farzandlari tushuniladi.

Qarovsiz qolgan bolalar – aniq yashash joyi bo`lmagan nazoratsiz qolgan voyaga yetmagan bolalardir.

Ijtimoiy qarovsiz qolgan bola – ijtimoiy moslasha olmaganlikning xatar darajasida turgan va ruhiy hamda jismoniy rivojlanishdan orqada qolgan bola, bilish faoliyati bilan shug`ullanish, mehnat qilishga intilish, hayotiy istiqbollarni belgilash kabi istak-xohishning shakllanmaganligi, urushqoqlik, spirtli

¹ Sobirova D.G., Axundjanova S.A., Tadjiyeva S.X., Yuldasheva M.B. Bolalarni joylashtirishning muqobil shakllari. O`quv-uslubiy qo`llanma. –T.: “JAHON PRINT”, 2012. –B. 92-93

² Irgasheva N., Mirashirova N. Ota-ona qaramog`isiz qolgan bolalar, ularni joylashtirish shakllari. Bola va zamon. №3. 2007. –B. 39

vositalarni qabul qilish, mayda o'g'rilik, bezorilik, daydilik kabi salbiy fazilatlar bilan tavsiflanuvchi bola.

Davlat ko'magiga muhtoj bo'lgan bolalar – ota-onasi noma'lum bolalar, o'limi tufayli har ikki yoki yagona ota-onasini yo'qotganlar, oiladan ajratib olingan, ota-onalik huquqi cheklangan yoki undan mahrum bo'lgan ota-onalarning farzandlari, nazoratsiz, shuningdek, ularni boqish va tarbiyasi bilan shug'ullanish imkoniyatiga ega bo'lmagan surunkali kasallikka uchragan ota-onalarning farzandlari, muomalaga layoqatsiz (yoki muomala layoqati qisman cheklangan) deb topilgan yoki bedarak yo'qolgan (o'lgan) deb e'lon qilingan ota-onalar, ozodlikdan mahrum qilish asosida jazoni o'tash muassasalarida yoki qamoqda saqlanilayotgan ota-onalar, jinoyatni amalga oshirganligi haqida gumon qilinayotgan va jinoyat sodir etganligi bo'yicha ayblanayotganlarning bolalari, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda davlat himoyasiga muhtoj deb topilgan boshqa bolalar¹.

Institutsionalizatsiya - biror-bir hodisa yoki harakatning tashkiliy muassasaga aylanishi, muayyan tuzilmaga oid munosabatlarning, tartib-intizom, xulq-atvor qoidalarining tartibga solinishi jarayoni.

Deinstitutsionalizatsiya – ommaviy muassasalarda (Mehribonlik uylari, Muruvvat uylari) tarbiyalanayotgan shaxslarning (shu jumladan, bolalarning ham) joylashtirish va vasiylikning muqobil shakllariga ko'chirish siyosati. Internat tipidagi bolalar sonining sezilarli ravishda qisqarishi, oilaviy joylashtirish shakllarining rivojlantirilishi, bolalar uchun muassasalarning ko'maklashuv xizmatlariga aylantirilishi deinstitutsionalizatsiyaning yakuniy maqsadi hisoblanadi. Qiyin hayotiy vaziyatdagi oila va bolalarga majmuaviy, manzilli va malakali ko'mak ko'rsatilishining ta'minlanishi orqali ijtimoiy yetimlikni oldini olish deinstitutsionalizatsiya siyosatini amalga oshirilishida muhimdir².

¹ Sobirova D.G., Axundjanova S.A., Tadjiyeva S.X., Yuldasheva M.B. Bolalarni joylashtirishning muqobil shakllari. O'quv-uslubiy qo'llanma. –T.: “JAHON PRINT”, 2012. –B. 88

² Sobirova D.G., Axundjanova S.A., Tadjiyeva S.X., Yuldasheva M.B. Bolalarni joylashtirishning muqobil shakllari. O'quv-uslubiy qo'llanma. –T.: “JAHON PRINT”, 2012. –B. 88

Ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalar uchun muassasa – sog'liqni saqlash tizimi muassalari (Bolalar (go'daklar) uyi), ijtimoiy muhofaza qilish muassasalari (ruhiy va jismoniy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun Muruvvat uylari), xalq ta'limi muassasalari (Mehribonlik uylari, Bolalar shaharchasi, maxsus maktab-internatlar).

Ota-onalik huquqidan mahrum etish – oilada tarbiyalanayotgan bolaning huquqlarini muhofazalashga, ota-ona tomonidan shafqatsiz munosabatda qolishidan, ularning zararli ta'siridan (masalan, ota-onasi surunkali piyonista yoki giyohvand bo'lsa) yoki ota-onalik majburiyatlarini bajarishdan bosh tortishidan himoyalashga qaratilgan qonuniy chora.

Ota-onalik huquqidan mahrum etish faqat sud orqali amalga oshiriladi. Sudga ariza davlat va jamoatchilik tashkilotlari, ota-onalardan biri yoki bolaning vasiyi (homiyi), vasiylik va homiylik organi tomonidan berilishi mumkin. Ota-onalik huquqidan mahrum bo'lgan ota-onalar bola bilan qarindoshlik qilish bo'yicha deyarli barcha huquqlardan mahrum bo'ladi, biroq bu ularni boqish bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishlaridan ozod etmaydi. Sud tomonidan ota-onalik huquqidan mahrum qilinganligi haqidagi qaror tasdiqlanishi bilan bir vaqtda bolaga aliment to'lash masalasi ham qo'yiladi. Har ikki ota-onaning ota-onalik huquqidan mahrum etilishi vaziyatlarida bola vasiylik va homiylik organlari g'amxo'rlikiga beriladi.

Ijtimoiy himoya insoniyat taraqqiyotining barcha bosqichlari uchun xos xususiyat bo'lib, jamiyat rivojlanishining turli bosqichlarida turli ijtimoiy himoya shakllari turlicha ma'no va mazmunga ega bo'lgan. Bozor iqtisodiyoti sharoitida esa ijtimoiy himoyaning ahamiyati yanada ortib ketdi va uni amalga oshirish davlat siyosatining ajralmas qismiga aylandi. Chunki bozor munosabatlariga o'tish bosqichi jamiyat rivojining ilg'or, yuksak texnologiya bilan qurollangan, inson sha'ni, qadr-qimmatini va haq-huquqlarini himoya qilish ob'yektiv zaruriyatga aylanib borayotgan bir vaqtda kechmoqda. Odatda, ijtimoiy himoyaga jamiyat a'zolarining barcha qatlamlari u yoki bu darajada muhtoj bo'lsa-da, lekin ular orasida shunday qatlamlar ham borki, ularni

(nogiron, nafaqaxo`r, boquvchisiz, yosh bolalar kabi) ijtimoiy himoya qilish ob`yektiv zaruriyat hisoblanadi. Zero, ijtimoiy himoya qanday yo`lga qo`yilganligi davlat tizimining samaradorligi ko`rsatkichlaridan biri sanaladi. Binobarin, aholining biz oxirgi qayd qilgan ijtimoiy himoyaga muhtoj, boqimanda qatlamlari mehnat qilish layoqati chegaralangan yoki ilojsiz, jamiyat rivojiga muayyan hissa qo`shgan yoki kelajakni belgilovchi aholi guruhlari hisoblanadi. Shuning uchun ham ularni ijtimoiy himoya qilish hamda ijtimoiy himoya bilan bog`liq xarajatlar davlat strategik va joriy dasturlarida o`z ifodasini topishi lozim.

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ta`kidlaganidek, “Ijtimoiy himoya haqida gapirar ekanmiz, biz avvalo iqtisodiyotimiz barcha bo`g`inlarining izchil va barqaror rivojini ta`minlashni, aholining daromadi kam tabaqalarini, muhtoj oilalarni qo`llab-quvvatlashga, joylarda, birinchi navbatda, qishloqlarda yangi ish o`rinlari yaratishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuini nazarda tutamiz. Odamlarimiz hayotining moddiy bazasini mustahkamlashni nazarda tutamiz”¹.

“Ijtimoiy himoya” tushunchasi birinchi marta 1935-yilda AQSh ning Ijtimoiy xavfsizlik bo`yicha qonunida qo`llanilgan, keyinchalik Xalqaro Mehnat Tashkiloti konvensiyalarida bu tushuncha mazmuni mukammallashtirilgan².

Turli mamlakatlarda aholini ijtimoiy himoya qilish tizimi mamlakatning iqtisodiy taraqqiyot darajasi, demokratik taraqqiyot va uning aholi manfaatiga muvofiqligi, ijtimoiy siyosat darajasi, ijtimoiy ta`minot tizimi kabi omillarga bog`liq holda amal qiladi.

O`zbekistonda ijtimoiy himoya XX-asrning 20-yillaridan boshlab shakllana boshladi. Ijtimoiy himoya 90-yillarga kelib, ayniqsa, mustaqillik yillarida bozor iqtisodiyotiga o`tish asosida amaldagi islohotlarga mos ravishda yangidan shakllandi. Ayniqsa, milliy-ma`naviy qadriyatlarning, o`zlikni

¹ Karimov I.A. Biz kelajagimizni o`z qo`limiz bilan quramiz. –Jild.7 –T.: O`zbekiston, 1999. –B. 326

² Xalqaro Mehnat Tashkilotining “Ijtimoiy ta`minotning minimal normalari to`g`risida”gi 102 - sonli Konvensiyasi. Xalqaro Mehnat Tashkiloti Konvensiya va Tavsiyalari. Xalqaro Mehnat Byurosi. –Jeneva, 1991. –Jild. 1 –B. 534

anglashning, din va e`tiqodning, madaniyat va an`analarning tiklanishi ijtimoiy himoya tizimiga muhim yangilik bo`lib qo`shildi.

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ta`kidlaganidek, “Aholini ijtimoiy himoya qilish, kishilarning moddiy ahvolini yaxshilash vazifalarini hal etishda davlat manbalari bilan bir qatorda mehnat jamoalarining, jamoat va xayriya tashkilotlarining hamda jamg`armalarning mablag`lari ishga tushirilishi zarur.

Aholining ijtimoiy jihatdan eng muhtoj tabaqalari va guruhlarini – bolalar, qariyalar, nogironlar va boshqalarni qo`llab-quvvatlash, avvalgidek, ijtimoiy siyosatimizning ustuvor yo`nalishi bo`lib qolaveradi”¹.

Bozor munosabatlarining joriy etilishi bilan “ijtimoiy himoya” muammosini maxsus o`rganish, uning nazariy asoslarini ishlab chiqish va takomillashtirishga zaruriyat yuzaga keldi. Ana shu vaziyatni hisobga olgan holda, ushbu tadqiqotda “ijtimoiy himoya” bilan bog`liq ba`zi fikr-mulohazalarni umumlashtirishga harakat qilamiz.

Ommaviy va ilmiy adabiyotlarda ijtimoiy himoya bilan bog`liq turli-tuman so`z va iboralardan foydalaniladi: “ijtimoiy himoya”, “aholini ijtimoiy himoyasi”, “aholining ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish” va boshqalar. “Ijtimoiy himoya” tushunchasi hamda ishlatilayotgan barcha so`z va iboralar o`z mazmun-mohiyati jihatidan keng ma`noga ega.

“Ijtimoiy himoya” - bu aholining turmush darajasini va ish kuchini takror ishlab chiqarish bilan bevosita bog`liq munosabatlar (siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, ma`naviy va boshqalar)ni ta`minlashga qaratilgan ma`lum chora-tadbirlar majmuasi hisoblanadi. Boshqa tushunchalar, qanday shaklda ishlatilishidan qat`iy nazar, ana shu ma`noni ifodalovchi ibora yoki uning o`zgargan shakli sanaladi.

“Ijtimoiy himoya” deganda, keng ma`noda - mamlakat aholisini ijtimoiy va moddiy muhofaza qilinishini ta`minlaydigan hamda jamiyatda qaror topgan huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy chora-tadbirlar majmui, tor ma`noda - davlat va

¹ Karimov I.A. Bizdan ozod va obod vatan qolsin. -Jild. 2 –T.: O`zbekiston, 1996. –B.14–15

jamiyatning yoshi, salomatligi holati, ijtimoiy ahvoli, tirikchilik vositalari bilan yetarli ta'minlanmagani tufayli yordamga, ko'makka muhtoj fuqarolar to'g'risidagi g'amxo'rliqi tushuniladi¹.

V.Mojayev ijtimoiy himoya tushunchasiga quyidagicha ta'rif bergan: "Ijtimoiy himoya jamiyat funksiyalaridan bo'lib, ijtimoiy xavf-xatar tufayli jabr ko'rgan fuqaro mavqeini tiklashga qaratilgandir".

L.S.Rjanitsina ijtimoiy himoya tushunchasiga quyidagicha ta'rif bergan: "Ijtimoiy himoya deganda, insonning, u qayerda yashashidan, millatidan, jinsidan, yoshidan va boshqa shunga o'xshash holatlaridan qat'iy nazar, ijtimoiy-iqtisodiy huquqlari va kafolatlarini ta'minlash yuzasidan davlat tomonidan yuritiladigan siyosat nazarda tutilmog'i lozim".

V.I.Jukov ijtimoiy himoya tushunchasiga quyidagicha ta'rif bergan: "Ijtimoiy himoya - bu eng kam turmush darajasini ta'minlash, hayotiy ehtiyojlarni qondirish, turli tabaqalar faoliyatiga ko'maklashish maqsadida ijtimoiy tamoyillar, qoidalar, uslublar yig'indisidan iborat bo'lib, ular iqtisodiy, huquqiy, ijtimoiy kafolatlar tarzida belgilab qo'yilgan".

L.V.Tixomirov va M.D.Tixomirovalar "ijtimoiy himoya" tushunchasiga fuqaro sub'yektiv huquqlarini, shu jumladan sud himoyasini, qonunchilik, iqtisodiy, tashkiliy-texnik va boshqa tadbirlar orqali o'zini-o'zi himoya qilishini ta'minlashini qamrab oluvchi kompleks tadbirlar tizimi degan ta'rifni berganlar².

"Insonning ijtimoiy himoyalanganligi" tushunchasi shaxs va jamiyat o'rtasidagi ko'p qirrali munosabatlarni ifodalaydi va bunda inson hayot faoliyati, uning iste'dodi va salohiyati ro'yobga chiqariladi.

"Ijtimoiy himoya" tushunchasiga bunday yondashuv mustaqillikdan keyin yuzaga kela boshladi. Mustabid sho'ro ma'muriy-buyruqbozlik tizimi amal qilgan davrda ijtimoiy himoya deyilganda, davlat tomonidan

¹ O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. T.: O'zME Davlat ilmiy nashriyoti, 2002. –Jild. 4 –B. 89-90

² Тихомиров Л.В., Тихомирова М.Д. Юридическая энциклопедия. –М., 1992. –С. 24

markazlashtirilgan tartibda pensionerlar, nogironlar va boshqa qashshoq qatlamlarni ijtimoiy ta`minlash nazarda tutilgan.

Bugungi kunda ijtimoiy himoya maqsad va yo`nalishlari ancha kengaygan bo`lib, aholining ko`pchilik qismini qashshoqlikdan himoyalash, turmush darajasining pasayib ketishiga yo`l qo`ymaslikka qaratilgandir.

Ijtimoiy himoyaning asosiy maqsadi aholi farovonligining to`xtovsiz yaxshilanishini ta`minlash, aholi qatlamlarining ta`lim, madaniyat, kasb malakasi, daromadlari jihatidan keskin tafovutlariga barham berish, jamiyat tomonidan insonga munosib hayot darajasini va inson ravnaqini ta`minlashga yordam berishdan iborat.

Ijtimoiy himoyaning asosiy yo`nalishlari erkin ijtimoiy-iqtisodiy faoliyat ko`rsatishni ta`minlash, ish bilan bandlik, kasb tanlash, o`qish va bilim olish, daromadlarning kafolatlanishi, har bir fuqaroning o`z iqtisodiy faoliyatida daromadga ega bo`lishi, iste`molchilar himoyasi, iste`molchilar jamiyatlari, tovarlar va xizmatlar sifati, iste`mol kafolatini ta`minlash, aholiga tibbiy xizmat ko`rsatish, ijtimoiy ta`minot tizimi va aholining muhtoj, kam ta`minlangan qismlariga pensiyalar, nafaqalar, turli xil imtiyozlar berish hisoblanadi¹.

Insoniyat jamiyati shakllanibdiki odamlar farovon jamiyatni orzu qilib yashamoqda va bunday jamiyatni qurishni davlat bilan bog`lab kelishmoqda. Davlat o`zini ijtimoiy siyosati orqali aholini ijtimoiy himoyasini amalga oshiradi.

Ijtimoiy himoya keng qamrovli tushuncha bo`lib, aholini yordamga muhtoj qismini manfaatlarini va ehtiyojlarini qondirishni anglatadi².

Ota-ona qaramog`isiz qolgan bolalarni davlat tomonidan ta`minlash – muayyan davlat muassasasida yashashi davri mobaynida bepul ovqatlanish, kiyim-kechak va poyafzal bilan ta`minlanish, bepul yashash va bepul xizmat ko`rsatilishi imkoniyatining yaratilishi hisoblanadi.

¹ O`zbekiston milliy ensiklopediyasi. T.: O`zME Davlat ilmiy nashriyoti, 2002. –Jild. 4 –B. 90

² Nabiyeu F.H. Ijtimoiy siyosat. O`quv-uslubiy qo`llanma. – Samarqand. SamDU, 2007. –B. 89

O`rta maxsus ta`lim muassasalarida ta`lim olayotgan ota-ona qaramog`isiz qolgan bolalar to`liq davlat ta`minotida bo`lishga haqlidirlar.

Ota-ona qaramog`isiz qolgan bolalarni ijtimoiy himoyalash – davlat hokimiyati va mahalliy o`zini-o`zi boshqarish organlari tomonidan bolaning boshqa bolalar kabi teng huquqli ravishda rivojlanish va munosib hayot tarzini kechirish yuzasidan huquqi ta`minlanishini kafolatlovchi ijtimoiy, iqtisodiy, tashkiliy va huquqiy choralar tizimidir.

1.2. Ota-ona qaramog`isiz qolgan bolalar muammolariga bog`liq masalalarning tadqiqotlardagi talqini

Bugungi kunda jahon miqyosida ota-ona qaramog`isiz qolgan bolalar soni ko`payib qoldi. Bular qanday bolalar? Bu savolga javob berish ancha mushkul. Yaqin tarixga murojaat qiladigan bo`lsak, Fuqarolar urushi yillarida ota-onalaridan ajralib qolgan bolalarni davlat qaramog`iga olib tarbiyalash bosh muammo bo`lgan bo`lsa, II-Jahon urushi yillarida halok bo`lgan ota-onalarining farzandlarini bolalar uylariga olib, boshpana va ta`lim-tarbiya berish asosiy o`rinda turgan. Davlat qaramog`iga olingan bu bolalardan olimlar, yozuvchilar, qahramonlar va bir qancha buyuk kishilar yetishib chiqqan. Bu esa o`z navbatida biologik omillarning sog`lomligidan dalolat beradi.

Hozirgi Mehribonlik uylarida tarbiyalanuvchi bolalarda uchraydigan nosog`lom muhit biologik omillarning izdan chiqqanligini ko`rsatadi. Biologik omillarning buzilishi esa ota-onalarning ichkilikbozlik, giyohvandlik, fohishalik, jinoyatchilik va jamiyatga zid turmush tarzini kechirishlari bolalar shaxsini izdan chiqishiga bosh sabab bo`ladi. Bunday bolalarga ta`lim-tarbiya berish, yangicha ko`nikma va malakalarni shakllantirish, o`z navbatida yuqori darajadagi pedagogik mahorat talab qiladi.

Biz o`z ilmiy izlanishimizda ota-ona qaramog`isiz qolgan bolalardagi muammolar, ruhiy o`zgarishlar, axloqiy, aqliy, xarakter va ijtimoiy psixologik xususiyatlarni o`rganishga bag`ishlangan tadqiqotlar haqida to`xtalib o`tishga harakat qildik.

Barchaga ma`lumki, ota-ona qaramog`isiz qolgan bolalar oiladagi bolalardan keskin farq qiladi. Ota-ona qaramog`isiz qolgan bolalar xarakter xislatlardagi tajovuzkorlik (agressivlik)ni keltirib chiqaruvchi omillardan biri ona mehriga zorlik, ota-onalar tarbiyasiga muhtojlik bo`lib hisoblanadi.

Angliyalik psixolog olim R.Bernis onalik mehriga tashnalikni tahlil qila turib, shunday deb yozadi: Salbiy (dalilsiz) “Men konsepsiyasi” ning rivojlanishi va hissiz tajovuzkorlik bolaning ota-onasiga va ota-onalik rolini bajaruvchi

kishilarga nisbatan qo`polligi natijasidir. Bolada hech kimga qo`shilmaslik, odamovilik, tundlik hissi paydo bo`la boshlaydi. Bular esa salbiy “Men konsepsiyasi” ni keltirib chiqaradi.

Tajovuzkorlikni keltirib chiqaradigan yana bir sabab: kelisha olmaslik, qarama-qarshilik, aniq bir to`xtamga kela olmaslik kabilar ota-ona qaramog`isiz qolgan bolalarga keyinchalik doimiy salbiy hissiyotlarning shakllanishiga olib keladi.

V.S.Rotenberg va S.M. Bondarenkolar ishlab chiqqan “Qidiruv faolligi” – deb atalgan konsepsiyada ta`kidlanishicha, “Agar qidiruv faolligini yo`nalishini o`zgartirilsa, tajouzkorlikni yo`qotish mumkin bo`ladi”¹.

Mustaqil hayot kechirish tasavvuriga ega bo`lmagan ota-ona qaramog`isiz qolgan bolalar aksariyat hollarda qiynalib qolishadi.

N.N.Tolstix tomonidan o`tkazilgan tadqiqotlar shuni ko`rsatadiki, kelajakka ishonch, unga munosabat, hayotiy rejalar, vaqtinchalik imkoniyat yaratish, o`smirning o`sishi, hammasi ijtimoiy vaziyat ta`siri ostida o`tadi. Keyinchalik, L.S.Vigotskiy va L.I.Bojovichlar o`z tadqiqotlarida bu g`oyani rivojlantirganlar.

Bolalar uyi tarbiyalanuvchilari uchun kundalik hayot axloqiy me`yorlar, o`qish, tartibga itoat etish bilan bog`liq bo`lgan jarayonlar hisoblanadi.

Yopiq holdagi bolalar muassasalarida tarbiyalanuvchi bolalar kichik guruhlar bilan munosabatda bo`ladi, ularda boshqa guruh bilan munosabatda bo`lish cheklangan.

Bolalar uyi tarbiyalanuvchilari kattalarga yoki tarbiyachilarga yoqish uchun tartibga, intizomga bo`ysunishga harakat qilishadi.

Oiladagi bolalarni kundalik hayot tashvishlari bilan birga ko`pgina umuminsoniy muammolar ham qiziqtiradi, ular o`qishdan, oilaviy ishlarga qarashishdan tashqari, bo`sh vaqtlarini qanday o`tkazish va shu kabi holatlarni mustaqil hal qilishadi.

¹ Xaydarov I.O. Mehribonlik uyida tarbiyalanuvchilar shaxsining individual ijtimoiy-psixolgik xususiyatlari. Dis. psixol.f.n. TDPI, –T., 1996. –B. 15

Ma'lumki, bolalar muassasalarida tarbiyalanuvchilarning ruhiy rivojlanishi umumiy tarbiya maskanlaridagi bolalarga nisbatan ancha orqada. Shuning uchun ham bolalar shaxsiy hayot pozitsiyasiga ega bo'lishlari, o'z-o'zlarini, ichki va tashqi imkoniyatlarini anglashlari, shaxslararo munosabatlarga kirishishlari, oila muhitiga muvoffaqiyatli moslashishlari uchun oilada tarbiyalanishlari lozim.

N.P.Ivanova va O.V.Zavodilkanalarning ta'kidlashiicha, oilaning har bir a'zosiga xos bo'lgan rolli kutilmalarning o'zaro muvofiq kelishi bolaning tutungan oila muhitiga muvofaqiyatli moslashishining shartlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda, bolaning shaxsiy hayot tajribasi ham uning oila bilan identifikatsiyalashuviga, ya'ni o'zini oila a'zosi qatorida his etishi xususiyatlari hosil bo'lishiga ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, mualliflarning tadqiqot natijalariga suyangan holda e'tirof etishlaricha, tutungan oilalarda tarbiyalanayotgan bolalarning shaxslararo munosabatlarga kirishish xususiyatlari rivojlanishi dinamikasida ijobiy ko'rsatkichlar kuzatiladi¹.

Bolalar uyidagi qiyin tarbiyaviy jarayon tarbiyachidan nafaqat bugungi vazifani, qolaversa, jamoa rivojlanish tizimini va kelajakni belgilash, yo'llarini belgilashni taqozo qiladi.

Ko'p yillik ilmiy izlanishlar natijasida, 13 yil bolalar uyida faoliyat olib borib, orttirilgan tajribalarga asoslangan holda, S.A.Dzenushkayte shaxsning barcha maqsadlarini, istiqbolini ifodalovchi tarbiya maqsadi haqida insonparvarlik munosabatlarini quyidagicha ta'riflaydi:

- Kimki yordamga muhtoj bo'lsa, unga sidqidildan yordam berish;
- Boshqalarga nisbatan hurmatda bo'lish;
- Boshqalar quvonchiga, g'amiga sezgirlik bilan munosabatda bo'lish;
- Boshqalar qayg'usiga sherik bo'lish;
- Insoniy qadr-qimmatga ozor bermaslik;

¹ O'zbekistonda patronat tarbiyaning tashkil etilishi va uning tahlili. Axundjanova S.A. tahriri ostida. RBIMM. T., 2007. –B. 39-40

- Odamlar orasidagi insonparvarlik munosabatlariga zid ko`rinishlarga qarshi murosasiz bo`lish kerak¹.

Bugungi kunda ota-ona qaramog`isiz qolgan bolalarni oilaga olib tarbiyalash ijtimoiy ish sohasining asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Davlat muassasalarida tarbiyalanayotgan bolalar qatori, boquvchisini yo`qotgan bolalarni o`z tarbiyasiga olgan oilalarga ko`mak berish zamon talabidir. O`z oilasiga ota-ona qaramog`isiz qolgan bolalarni olib tarbiyalayotgan oilalar tarbiya jarayonidagi barcha qiyinchiliklardan, ham moddiy, ham metodik va bir qancha psixologik-pedagogik yordamga muhtojligiklari sezilib qoldi.

A.S.Spivakovskaya ota-ona qaramog`isiz qolgan bolalarni oilaga olib tarbiyalashning ikki xilini ajratib ko`rsatadi.

Birinchi toifaga quyidagi sabablar taalluqli: turmush tarzi ehtiyojini boshqarishga asoslangan tarbiyaga erishish, oliy maqsad yoki aniq sifatlar ta`minlashiga oid tarbiya.

Ikkinchi toifaga quyidagi sabablar taalluqli: emotsional bog`lanishli ehtiyojlarning aniq tizimlar ta`minotiga asoslangan tarbiya.

Ota-ona qaramog`isiz qolgan bolalarni oilaga olib tarbiyalayotgan ota-ona bola tarbiyasi bilan shug`ullanayotganda, o`z hayotiy faoliyatini g`amxo`rlik bilan to`ldirib borsa, yaxshi xulqi uchun bolani rag`batlantirsa maqsadga muvofiq bo`lar edi.

Ota-ona qaramog`isiz qolgan bolalarning shaxs sifatlarining shakllanishi va bir qancha ruhiy holatlarga taalluqli muammolar bilan bog`liq tadqiqotlar ham olib borilgan bo`lib, avstriyalik olim A.Adler ota-ona qaramog`isiz qolgan bolalar orasidagi jinoyatchilik, qonunbuzarlik xususiyatlarni o`rganib chiqib, ba`zi bir olimlar fikrini inkor qiladi, qarovsiz holda qonunbuzarlik bilan shug`ullanib kelgan bolani tarbiyaga olib, qayta tiklash mumkin emasligi haqidagi qarashga tanqidiy munosabat bildirib, bola hech qachon tug`ma ravishda jinoyatchi yoki qonunbuzar bo`lib dunyoga kelmaydi. Tarbiya

¹ Дзенушкайте С.А. Наш дом. М., 1987. –С. 187

jarayonida yosh xususiyatlari, shaxs sifatlari yo`nalishi to`g`ri yo`lga qo`yilsa, qayta tarbiyalashga erishish mumkinligini aytib o`radi.

Jamoatchilik muassasalarida tarbiyalanayotgan bolalarning ruhiy rivojlanishiga oid tadqiqotlarning natijasi olimlarning institutsializatsiyalashgan sharoitlarda yashab kelayotgan bolalar umumrivojlanishi haqidagi qayg`urishlarining bejiz emasligini ko`rsatib keladi.

A.Freyd o`z tadqiqotlarida oilasidagi o`z yaqinlaridan ajralib qolish oqibatida bolalarda salbiy hissiyotlarning rivojlanib borish omillarini o`rganib chiqqan.

A.Freyd o`z ilmiy izlanishlarida bolaning onasidan ajratib tarbiyalash jarayoni bolaning ruhiy holatini izdan chiqishiga sabab bo`lishini ko`rsatib o`radi. Oilada o`z onasini eslay oladigan bolalar o`z onasini tez-tez qumsab turadi, uzoq vaqtgacha uchrashmaslik esa salbiy hissiyotlarning namoyon bo`lib borishiga sabab bo`ladi¹.

Bolalar uyi tarbiyalanuvchilari orasida intizomni saqlash uchun qo`llaniladigan tartib, jazolash kabi holatlar bo`yicha ham ilmiy izlanishlar, tadqiqotlar olib borilgan.

Bunday tadqiqotlardan biri amerikalik olim R.A.Shipits olib borgan ilmiy izlanishlar bo`lib hisoblanadi.

R.A.Shipits bolalar uyidagi intizomni saqlash uchun qo`llaniladigan jazolashni qat`iyan qoralaydi.

R.A.Shipits o`z tadqiqotlarida quyidagi fikrlarni ta`kidlab o`radi: “Bolalarni guruh oldida jazolash yaxshi oqibatlarga olib kelmaydi. Aybsiz aybdorlar jazo yarasini unutmaydilar, tarbiyachiga nisbatan hurmatsizlik hissi paydo bo`ladi. Izquvarlik qilish ham yaramaydi. Bu yerda ham aybsiz bolalar aybdor bo`lib qolishi hech gap emas. Buning o`rniga sodir etilgan jinoyatni guruh oldida muhokama qilish yaxshi natijalar beradi. Birinchi navbatda intizom buzilishining sababini o`rganish kerakligini ko`rsatadi. Ikkinchidan, ishonch va

¹ Фрейд А. Разлука с матерью. Лондон. 1965, перевод с. англ. –М., 1970. –С. 143

aralashish, intizom buzilishi bilan bog'liq bo'lsa, jazolash voqea sodir etilgandan so'ng qo'llaniladi. Jazolash paytida, bolalar tarbiyachi intizomni tiklashini va shu yerda tartib o'rnatish olishligini bilishi kerak"¹.

A.A.Xvostov bolalar uylaridagi intizomning keskin buzilib ketishi, bolalar orasida jinoyatchilikning avj olishi, axloqiy me'yorlarning buzilishi kabi holatlarni ijtimoiy psixologik tadqiqot predmeti sifatida o'rganib chiqqan.

Intizomga taalluqli masalalardan biri tarbiyachining shaxsiy xarakteristikasi bo'lib, bu masala yuzasidan K.F.Tonuliya, K.R.Torenburg, V.Vasmund va boshqa olimlar ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishgan. Tarbiyachi o'z hatti-harakatini doimo nazorat qilishi lozimligi yuqorida sanab o'tilgan olimlar tomonidan ta'kidlanadi. Bu esa o'z navbatida tarbiyachini ob'yektivlikka olib keladi.

Amerikalik psixolog olim A.Yu.Marokko ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalar muammosi ustida, ularning ruhiy rivojlanish yo'llari haqida fikr yuritib, ilmiy tadqiqot ishlari olib borgan. Bolalar yashash sharoitini yaxshilash Amerika ligasi (АЛБД – Американская Лига за Благополучие Детей) da ijtimoiy moslashtirish, ularga yordam berish ustida ishlashning bir qancha usullari ko'rsatib o'tilgan.

Eng keng tarqalgan tizimlardan biri bu foster oila bo'lib hisoblanadi. Bunday oilalar asosan ikki kishidan iborat: er va xotin. Ular tarbiyalash uchun oilasiga bolalar olishadi. Yashash, ovqatlanish, madaniy dam olish hammasi oila zimmasida turadi. Foster oilalarga ota-onasi bilan kelisha olmagan, ular uyida yashashni istamagan bolalar olinadi. Bu bolalarning ko'pchiligi psixologik stressga uchragan bo'lib, tinch, osoyishta yashash sharoitini izlab foster oilalarga kelib qolishadi. Bu yerda bolalarga hamma yetarli sharoitlar yaratib berib, kelajakda o'z oilalariga qaytarishga harakat qilinadi.

Bolalar yashash sharoitini yaxshilash Amerika ligasi sistemasida ish olib borayotgan psixologlar bir qancha ijtimoiy psixologik usul va yo'l-yo'riqlarni

¹ Шипиц Р.А. Поведение депривированных детей. –М., 1991. –С. 166-167

ishlab chiqqanlar. Tarbiyachilarning vazifasi esa ana shu usullarni voqelikka olib chiqishga yordamlashadi.

Jahon tajribasida deinstitutionalizatsiya masalasining (tarbiyaning institutsional shaklidan voz kechib, bolalarni o'z tarbiyasiga olishga tayyor bo'lgan oilalarni qidirish) faollik bilan ilgari surilishi esa deinstitutionalizatsiyalashgan muassasalarda yashab kelayotgan bolalarning nafaqat har tomonlama rivojlanishi uchun sharoitlar bilan ta'minlash, balki o'sib kelayotgan bolalarda o'z kelajaklarini qurish ko'nikmasi shakllanishining tabiiy muhitini yaratishni taqozo etadi. Bu muhit esa, shubhasiz, oiladir.

Bolalar uyida go'daklik davridan buyon yashab kelayotgan bolalar rivojlanishiga gospitalizm hodisasining salbiy ta'siri ular psixik taraqqiyotining har tomonlama orqada qolish ko'rsatkichiga ega bo'lib borishida o'z izini qoldiradi. Ijtimoiy xulq-atvorni egallab borishdagi o'ziga xoslik, shaxslararo munosabatga kirishish davomidagi qiyinchiliklar, kasbiy, oilaviy kelajaklarini rejalashtirish bilan bog'liq holda yuzaga keladigan muammolar deprivatsion sindromning asoratlariandir. Institutsional muassasalarga alternativ bo'lgan bolalarni ijtimoiy himoyalash, jumladan, oilaga joylashtirishning shakllarini keng targ'ibot qilish deinstitutionalizatsiya masalalarining amaliy yechimini izlash yo'llaridan biridir. Zero, mazkur muassasalarda istiqomat qiluvchi bolalarning shaxsi xususiyatlari tarkibida jamoatchilik kayfiyati kabi me'yorda ijtimoiylashuv jarayoni kechishiga zid bo'lgan ko'nikmalarni shakllantiruvchi tor ijtimoiy muhit tarbiyalanuvchi kelgusidagi hayoti muvoffaqiyatli kechishiga salbiy ta'sir qiladi¹.

Ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalar juda ta'sirchan bo'ladilar. Shuning uchun Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilariga xos psixik pessimizm hissining bartaraf etilishi uchun ularning yashash tarzi oilaviy tipdagi bolalar muassasasi sharoitiga yaqinlashtirilishi hamda bolalar milliy an'analar, urf-odatlariga

¹ Sobirova D.G'. Qay biri ma'qul: Patronat oila yoki Mehribonlik uyi?// Bola va zamon. №3. 2006. –B. 30

o`rgatilib borilishi zarur. Bu sharoitni esa oilaviy muhit andozasi bo`lgan patronat oilalar ta`minlab berishi mumkin.

Ko`pgina davlatlarda so`nggi o`n yillikda yetim va ota-ona qaramog`isiz qolgan bolalar uchun katta muassasalardan voz kechish va bolalarga tabiiy (oilaviy) muhitda ko`mak berish kuzatilmoqda. Bunga Ikkinchi Jahon urushidan so`ng Shvetsiyada asos solindi. Shvetsiya tajribasi bolani o`z oilasida diqqat markaziga qo`yishnigina emas, balki oilani jamiyatdan chetlashtiruvchi jarayonlarni bartaraf etishni ham o`z ichiga olgan.

Rivojlangan davlatlarda ota-onalar o`z farzandlarini parvarish qila olishlari uchun oilaga yordam ko`rsatishga intiladilar. Ayrim vaziyatlarda bolani tutingan ota-onaga berish kabi choralarni qo`llaydilar.

Aynan oila bolaga ijobiy ta`sir ko`rsatadi. Shuning uchun ham, ko`pgina davlatlarda ota-ona qaramog`isiz qolgan bolalarni joylashtirishning muqobil shakllari va qo`llab-quvvatlash bo`yicha ko`pgina ishlar olib borilmoqda.

Oxirgi yillarda O`zbekistonda olimlar tomonidan olib borilgan Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarining ruhiyatini o`rganishga qaratilgan tadqiqotlar natijalarining ta`kidlashicha, bolani oilaviy hayotga tayyorlash ishi ularning oilaviy hayot va oilaviy munosabatlar haqidagi bilimlarni egallashlari mumkin bo`lgan muhitning mavjud bo`lishini talab qiladi¹.

Ota-ona qaramog`isiz qolgan bolalarni oilaga joylashtirish muammolarini hal etish bilan bir qatorda boshqa bir talay muammolar – nafaqat ijtimoiy, balki mazkur jarayonni tashkillashtirish bilan bog`liq bo`lg`usi nomzod ota-onalarda mavjud bo`lgan ijtimoiy, pedagogik, psixologik to`siqlar mavjud bo`lishi mumkin.

RBIMM xodimlari tomonidan “Patronat oilalarning bolalarni jamiyatga samarali integratsiyalashuvini ta`minlovchi ijtimoiy, pedagogik va psixologik resurslarini aniqlash” loyihasi doirasida O`zbekiston hududidagi patronat oilalarning ijtimoiy, pedagogik va psixologik resurslari o`rganilgan.

¹ To`xtamurodov E. Bolalar uylari tarbiyalanuvchilarini oilaviy hayotga tayyorlashning ijtimoiy va pedagogik asoslari. Dis. ped.f.n. ToshDU, –T., 1994. –B. 38

Patronat oilaning ijtimoiy resursini o`rganish natijasi shuni ko`rsatadiki, bola patronat oila sharoitida o`z xonasi va o`z burchagiga ega bo`ladi. Bolalarni qarindoshlari bilan munosabatga kirishishlari uchun imkoniyat yaratilganligi hamda oilaning mavjudligi natijasida u haqida tasavvurga ega bo`ladi.

Pedagogik resurslar patronat oila ota-onalari tomonidan bolalarni maishiy xo`jalikni yuritishga o`rgatiladi, mehnat tarbiyasi, axloqiy tarbiya beriladi, shuningdek, jamoa tarbiyasidan mustasnoligidir.

Psixologik resurslar orqali patronat oilada bola ijtimoiy ko`nikmalarni egallashi uchun ko`proq imkoniyat yaratiladi.

Patronat, avvalo, bolalarning manfaatlarini ko`zda tutadi. Bu jarayonning asosiy tashkilotchisi oiladir. Bolani patronatga olgan oila a`zolarining hayot tarzi, ularning ma`naviy hamda ma`rifiy qiyofasi bolaning shaxs sifatida rivojlanishining tashqi omili sifatida xizmat qiladi. Shunday ekan, patronat oilalarning tarbiyalanuvchilar ruhiyatini (ichki omil) to`laqonli shakllanishidagi hamda jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiyalashuvidagi roli va ahamiyati kattadir. Himoyaga muhtoj bolalarni jamiyatga samaraliroq integratsiyalashuvini ta`minlash, ijtimoiylashuvning oiladagi oddiy elementlari (uy-ro`zg`or yumushlari, oila haqida amaliy tushunchaga ega bo`lish, otalik va onalik hamda farzandlik funksiyalarini o`zlashtirish, oila a`zolari bilan muloqotga kirishish xususiyatlari, oilaviy byudjetni rejalashtirish) haqida bilim, malaka va ko`nikmalar bilan qurollanishlariga yordam berish patronat oilalarning asosiy funksiyalaridandir¹.

Demak, patronat oilalardagi mavjud oilaviy muhit, ota va onaning oiladagi o`rni, ular xulqining tarbiyaviy namunasi, iliq oilaviy-ijtimoiy munosabatlar, farzandlik tarbiyasi, mehnat ko`nikmalari bilan bog`liq bilim va tajriba mazkur oilada tarbiya topayotgan bolaning samarali ijtimoiylashuvini ta`minlaydi.

¹ Sobirova D.G`. Qay biri ma`qul: Patronat oila yoki Mehribonlik uyi?// Bola va zamon. №3, 2006. –B. 30

Yuqorida o`rganib chiqilgan ilmiy tadqiqotlardan shu narsa ma`lumki, ota-ona qaramog`isiz qolgan bolalarning ruhiy rivojlanish jarayonida shunday o`ziga xos maxsus xususiyatlar borki, bu ruhiy rivojlanishdan orqada qolish emas, balki bu maxsus xususiyat ichki tushuncha, tasavvur bir qatorda namoyon bo`lmasligi, harakatlantiruvchi fikrlash va axloqiy javobgarlikning tashqi vaziyatlar bilan bog`liq holati bilan xarakterlanadi.

Insoniyat taraqqiyoti beshigi hisoblanmish oila doimo jamiyatning o`zagi, asosi bo`lib kelgan. Oila va uning a`zolarining iliq hamda bir-birini qo`llab-quvvatlovchi munosabati shu oilada o`sib kelayotgan bolaga o`zini atrofdagilar nazarida ahamiyatli va qadrga ega bo`lgan inson sifatida his etishiga yordam beradi.

Inson ruhiyatini barkamollikka yetaklovchi sharoit oilada bo`lib, bolalarni joylashtirishning muqobil shakllarini hayotga keng tadbiq qilish ota-ona qaramog`isiz qolgan bolalarni ijtimoiy himoyalash tizimini muvofiqlashtirishning eng maqbul yo`llaridan biri hisoblanadi.

II-BOB. OTA-ONA QARAMOG`ISIZ QOLGAN BOLALAR BILAN IJTIMOIIY ISH OLIB BORISHNING HUQUQIIY ASOSLARI

2.1. Ota-ona qaramog`isiz qolgan bolalarni ijtimoiy himoyalash masalalarining xalqaro va milliy qonunchilik normalarida aks ettirilishi

Ota-ona qaramog`isiz qolgan bolalarni ijtimoiy himoyalash masalalari davlatimiz siyosati darajasidagi dolzarb masalalardan biriga aylanib bormoqda. Ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarni himoyalash borasidagi xalqaro va milliy darajada qabul qilingan me`yoriy-huquqiy hujjatlarning asosiy tamoyili butun dunyoda bolalar huquqini muhofazasining ta`minlanishi va umuman ijtimoiy yetimlik muammosini oldini olishga qaratilgan¹.

Inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasida, “Bola huquqlari to`g`risida”gi Konvensiyada “...barcha odamlar erkin, qadr-qimmat va huquqlarda teng bo`lib tug`iladilar”, deb belgilanadi. Har bir bola oilada yashash va tarbiyalanishi, o`z ota-onasini bilishi, ularning g`amxo`rligidan foydalanish, ular bilan birga yashash huquqiga ega. Bu huquq bolaga barkamol voyaga yetish, sog`lom tan va tafakkurda, hech narsaga alishib bo`lmaydigan ota-onaning ko`z qaramog`ida bo`lib, ularning mehr-muhabbatidan bahramand bo`lish, tashqi olam-atrof bilan o`ziga eng yaqin kishilar hisoblanmish ota-onalari orqali bog`lanish, bu tufayli atrofda bo`layotgan voqea-hodisalarni asl holida tushunishi, idrok qilish va xulosa chiqarish, o`zgalar tajovuzidan, tahdididan munosib himoyalani sh imkonini beradi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasida bolalar alohida g`amxo`rlik va yordam huquqiga egadirlar, deb e`lon qilgan.

Bugungi kunda ota-ona qaramog`isiz qolgan bolalarni ijtimoiy-huquqiy jihatdan qo`llab-quvvatlash masalalari ularni yashash joylari bilan ta`minlash, ma`lum bir muassasa yoki shaxslar vasiyligiga berish, ta`lim va tarbiya olishga, shuningdek, sog`lom va barkamol shaxs sifatida shakllanishiga nisbatan bo`lgan

¹ O`zbekistonda patronat tarbiyaning tashkil etilishi va uning tahlili. Axundjanova S.A. tahriri ostida. RBIMM. T., 2007. –B. 7

huquqlarni himoyalashning muqobil shakllari hamda imkoniyatlarini joriy etish va hayotga tadbqiq qilishga qaratilgan¹.

Ota-ona qaramog`isiz qolgan bolalarni ijtimoiy himoyalashga oid quyidagi xalqaro va milliy darajadagi me`yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilingan:

- Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi tomonidan 1989-yil 20-noyabrda qabul qilingan “Bola huquqlari to`g`risida”gi Konvensiya;

- O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi;

- O`zbekiston Respublikasining Oila Kodeksi;

- O`zbekiston Respublikasining “Vasiylik va homiylik to`g`risida”gi Qonuni;

- O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 12-apreldagi 171-sonli “O`zbekiston Respublikasi Oila Kodeksini hayotga tadbqiq qilish chora tadbirlari haqida”gi Qarori;

- O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 12-apreldagi 171-sonli qaroriga 2-Ilova. “O`zbekiston Respublikasida vasiylik va homiylik to`g`risida”gi Nizomi;

- O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 12-apreldagi 171-sonli qaroriga 3-Ilova. “Voyaga yetmagan bolalarni farzandlikka va bolalarni oilaga tarbiyaga olish (patronat) to`g`risida”gi Nizomi;

- O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002-yil 25-yanvardagi “Aholini ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini aniq yo`naltirilgin tarzda qo`llab-quvvatlashni kuchaytirish to`g`risida”gi Farmoni;

- O`zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligida 1189-son bilan 2002-yil 18-noyabrda ro`yxatdan o`tkazilgan O`zbekiston Respublikasi Xalq Ta`limi Vazirligi, O`zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining “Tarbiyalash (patronat) uchun oilalarga beriladigan yetim bolalarni kiyim-bosh, poyafzal bilan ta`minlash hamda bolani o`z tarbiyasiga olgan tutingan ota-onalarga har oylik nafaqa to`lash tartibi to`g`risida”gi Nizomi;

¹ O`zbekistonda patronat tarbiyaning tashkil etilishi va uning tahlili. Axundjanova S.A. tahriri ostida. RBIMM. T., 2007. –B. 8

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007-yil 31-iyuldagi 158-sonli qaroriga Ilova. "Oilaviy bolalar uylari to'g'risida"gi Nizomi;

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007-yil 21-avgustdagi 179-sonli "Voyaga yetmagan bolalarni farzandlikka va bolalarni oilaga tarbiyaga olish (patronat) to'g'risidagi nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi Qarori;

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 26-maydagi 110-sonli qaroriga Ilova. "Vasiylik va homiylik organiga ota-onasining qarovisiz qolgan bolalar to'g'risidagi ma'lumotlarni taqdim etish tartibi haqida"gi Nizomi.

Keyingi yillarda davlatimiz siyosatining oilani mustahkamlash, onalik va bolalikni muhofazalashga qaratilgan tadbirlar tizimi jahon miqyosida amalga oshirilayotgan siyosiy tadbirlar negizining bir qismi sifatida namoyon bo'lib kelmoqda. Jumladan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi tomonidan 1989-yil 20-noyabrda qabul qilingan "Bola huquqlari to'g'risida"gi Konvensiya bunga yaqqol misoldir.

1992-yilda "Bola huquqlari to'g'risida"gi Konvensiyaga qo'shilganligi munosabati bilan o'tgan davrda malakatimiz shaxsning, ayniqsa, bolalarning huquqlarini keng ma'noda e'tirof etish usullari va vositalarini rivojlantirish hamda himoya qilishga da'vat etilgan ushbu muhim xalqaro hujjatning barcha asosiy moddalariga to'la amal qilib kelmoqda.

"Bola huquqlari to'g'risida"gi Konvensiyaga muvofiq ishtirokchi davlatlar,

- Bolani mana shunday alohida himoya qilish zarurligi 1924-yilgi Bola huquqlari Jeneva deklaratsiyasida va Inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risida Xalqaro Paktda, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risida Xalqaro Paktda, shuningdek, ixtisoslashgan muassasalar hamda bolalarning farovonligi masalalari bilan shug'ullanuvchi xalqaro tashkilotlarning Nizomlari va tegishli hujjatlarida e'tirof etilganligini e'tiborga olib,

- Jamiyatning asosiy tashkiloti hisoblanmish oila va tibbiy muhitga uning barcha aʼzolari, ayniqsa, bolalar oʻsib-ulgʻayishlari va farovonlikka ega boʻlishlari uchun jamiyat doirasidagi majburiyatlarni oʻz zimmasiga toʻliq oladigan boʻlishiga erishish maqsadida zarur himoya va yordam bilan taʼminlanishi lozim ekanligiga ishonch hosil qilgan holda,

- Bolaning shaxsi sogʻlom va har tomonlama uygʻunlashgan holda kamoloti uchun u oila gʻamxoʻrligida, baxt, mehr-muhabbat va ongli tushunish vaziyatida oʻsishi zarurligini eʼtirof etib,

- Bola jamiyatda mustaqil hayotga toʻla tayyorlanishi va Birlashgan Millatlar Tashkiloti Nizomida eʼlon qilingan gʻoyalar ruhida, ayniqsa, tinchlik, qadr-qimmat, sabr-toqat, erkinlik, tenglik va birdamlik ruhida tarbiyalanishi lozimligini hisobga olib,

- Bola huquqlari deklaratsiyasida koʻrsatib oʻtilganidek, “Bola, agar u jismoniy va aqliy jihatdan kamolotga yetmagan boʻlsa, maxsus ravishda muhofaza va gʻamxoʻrlikka, binobarin, tugʻilguncha va tugʻilgandan keyin ham munosib darajadagi huquqiy himoyaga muhtoj” ekanligini eʼtiborga olib,

- Jahondagi barcha mamlakatlarda nihoyatda ogʻir sharoitlarda yashayotgan bolalar borligi hamda ular alohida eʼtiborga muhtoj ekanliklarini eʼtirof etib,

- Bolaning himoya qilinishi va uygʻun ravishda rivojlanishi uchun har bir xalqning anʼanalari va madaniy qadriyatlari muhim ahamiyat kasb etishini munosib tarzda hisobga olib,

- Har bir mamlakatda, jumladan, rivojlanayotgan mamlakatlarda bolalarning turmush sharoitlarini yaxshilash uchun xalqaro hamkorlik qilishning muhimligini eʼtirof etib, ... kelishib oladilar.

Bu kelishuvga muvofiq mazkur Konvensiyaning 20-moddasiga koʻra:

1. Oʻzining oila gʻamxoʻrligidan vaqtincha yoki doimiy mahrum boʻlgan yoki oʻzining eng yaxshi manfaatlarini yoʻlida bunday gʻamxoʻrlikda qola olmaydigan bola davlat tomonidan koʻrsatiladigan alohida himoya va yordamni olish huquqiga egadir.

2. Ishtirokchi - davlatlar o'z milliy qonunlariga muvofiq ravishda bolani parvarish qilishning almashtirilishini ta'minlaydilar.

3. Bolani bunday parvarishlash, jumladan, islom shariati bo'yicha "kafola"ga tarbiyaga berishni, asrab olishni yoki, zarurat tug'ilgan taqdirda, bolalar boqiladigan tegishli muassasalarga joylashtirishni o'z ichiga oladi. Parvarishni almashtirish turlari qarab chiqilayotganda bola tarbiyasidagi vorislikning maqsadga muvofiqligi hamda uning etnik kelib chiqishi, diniy va madaniy mansubligi, ona tili yetarli darajada hisobga olinishi lozim.

Oilasidan mahrum bo'lgan bolani himoyalash maqsadida, davlat oila muhitidan ayrilib qolgan bolaning ijtimoiy muhofaza etilishini, tegishli oilaviy g'amxo'rlikning yaratilishini yoki bunday hollarda bolagi o'z parvarishiga oladigan maxsus muassasaga joylashtirilishini ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 64-moddasida ta'kidlanganidek, "Ota-onalar o'z farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majburlarlar.

Davlat va jamiyat yetim bolalarni va ota-onalarining vasiyligidan mahrum bo'lgan bolalarni boqish, tarbiyalash va o'qitishni ta'minlaydi, bolalarga bag'ishlangan xayriya faoliyatlarni rag'batlantiradi"¹.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1998-yil 30-aprelidagi qarori bilan tasdiqlangan va 1998-yil 1-sentabridan amalga kiritilgan Oila Kodeksining "Ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni joylashtirish shakllari" to'g'risidagi VI-bo'limida

- Ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni aniqlash va joylashtirish;
- Farzandlikka olish;
- Vasiylik va homiylik;
- Bolalarni oilaga tarbiyaga olish (patronat) masalalari ko'riladi.

O'zbekiston Respublikasining Oila Kodeksida ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalarning huquq va manfaatlarini himoyasi, ularni aniqlash va hisobga olish,

¹ O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.: O'zbekiston, 2013. –B. 13

bolalarni joylashtirish shakllari, jarayoni va uni amalga oshirish uchun mas'ul bo'lgan tashkilot hamda shaxslarning majburiyatlari belgilangan bo'lib, bu jarayon qonun doirasida kafolatlanadi¹.

O'zbekiston Respublikasi Oila Kodeksining 151-172-moddalarida farzandlikka olish, farzandlikka olishi mumkin bo'lgan shaxslar, farzandlikka olishni sir saqlash, farzandlikka olishda ustunlik huquqiga ega bo'lgan shaxslar, farzandlikka olinayotgan bolaning farzandlikka olinishiga roziligi, bolaning rozilgisiz farzandlikka olish, farzandlikka oluvchining eri (xotini)ning bolani farzandlikka olishga roziligi, vasiylik yoki homiylikdagi bolani farzandlikka olish, ota-onaning bolani farzandlikka olinishiga roziligi, ota-onaning rozilgisiz farzandlikka olish, davlat bolalar muassasalari tarbiyasi va ta'minotidagi bolalarni farzandlikka olish, bolani takroran farzandlikka olish, farzandlikka olish rad etilganligi ustidan shikoyat qilish, farzandlikka olishda tug'ilishni qayd etish daftariga o'zgartirish kiritish, farzandlikka olishning huquqiy oqibatlari, farzandlikka olishda boquvchisini yo'qotganlik uchun pensiya yoki nafaqaning saqlanishi, farzandlikka olishning vujudga kelish vaqti, farzandlikka olishni haqiqiy emas deb topish asoslari, farzandlikka olishni bekor qilish asoslari, farzandlikka olishni bekor qilishni talab etish huquqiga ega bo'lgan shaxslar, farzandlikka olishni haqiqiy emas deb topish va bekor qilish tartibi, farzandlikka olishni haqiqiy emas deb topish va farzandlikka olishni bekor qilish oqibatlari batafsil yoritilgan.

O'zbekiston Respublikasi Oila Kodeksining 173-193-moddalarida vasiylik va homiylikning maqsadi, vasiylik va homiylikni belgilovchi organlar, vasiylik va homiylik vazifalarini amalga oshirish, vasiylik va homiylik belgilanadigan shaxslar, ota-onasi bo'lgan voyaga yetmagan bolalarga vasiy yoki homiy tayinlash, ota-ona vaqtincha bo'lmaganda bolalarga vasiylik yoki homiylik belgilash, vasiy va homiy tayinlash tartibi, vasiy va homiy qilib tayinlanishi mumkin bo'lgan shaxslar, vasiy va homiyning huquq hamda

¹ O'zbekistonda patronat tarbiyaning tashkil etilishi va uning tahlili. Axundjanova S.A. tahriri ostida. RBIMM. T., 2007. –B. 11

majburiyatlari, vasiy va homiylar faoliyatini nazorat qilish, vasiylik va homiylikdagi shaxslarning mol-mulkini boshqarish, vasiyning vasiylik va homiylik organlarining roziligi bilan qilishi mumkin boʻlgan harakatlari, vasiy va homiy tomonidan qilinishi mumkin boʻlmagan harakatlar, vasiylik yoki homiylikdagi shaxsga nafaqa tayinlash, voyaga yetgan shaxsga homiylik majburiyatidan ozod etish, vasiy va homiyni oʻz majburiyatini bajarishdan chetlatish, vasiylikning tugashi, homiylikning tugashi, vasiy yoki homiy yetkazgan mulkiy zararni toʻlash, vasiylik va homiylik organlarining qarori ustidan shikoyat qilish, vasiy va homiyning hatti-harakatlari ustidan shikoyat qilish tartiblari koʻrsatib oʻtilgan.

Oʻzbekiston Respublikasi Oila Kodeksining 194-200-moddalarida oilaga tarbiyaga beriladigan bolalar (patronat), bolalarni oilaga tarbiyaga olish toʻgʻrisidagi kelishuv, bolalarni oilaga tarbiyaga olish toʻgʻrisidagi kelishuvning bekor qilinishi, oilaga tarbiyaga olingan bolalarning huquqlari, tutingan ota-ona, bolalarni tarbiyaga olgan shaxslarning javobgarligi, oilaga tarbiyaga berilgan bolalarning turmush sharoitlarini va ularning tarbiyalanishini kuzatib borish boʻyicha belgilangan vasiylik va homiylik organlarining majburiyatlari eʼtirof etilgan.

Oʻzbekiston Respublikasining Oila Kodeksining 237-moddasida “...Oʻzbekiston Respublikasi hududida chet el fuqarosi boʻlgan bolani farzandlikka olishda bolaning qonuniy vakili va bola fuqarolikka ega boʻlgan davlat vakolatli organining roziligi, shuningdek agar oʻsha davlatning qonun hujjatlariga muvofiq talab qilinsa, farzandlikka olish haqida bolaning ham roziligi olinishi lozim.

Agar farzandlikka olish natijasida farzandlikka olingan bolaning Oʻzbekiston Respublikasining qonun hujjatlari hamda xalqaro shartnomalari bilan belgilangan huquqlari buziladigan boʻlsa, farzandlikka oluvchining qaysi fuqarolikka mansubligidan qatʼiy nazar, farzandlikka olish mumkin emas, farzandlikka olingan taqdirda esa, u sud tartibida bekor qilinishi lozim...” – deb belgilangan.

Bundan tashqari, ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalarni ijtimoiy himoyalash, qo'llab-quvvatlash tadbirlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 12-apreldagi 171-sonli "O'zbekiston Respublikasi Oila Kodeksini hayotga tatbiq qilish chora tadbirlari haqida"gi Qarori, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007-yil 21-avgustdagi 179-sonli "Voyaga yetmagan bolalarni farzandlikka va bolalarni oilaga tarbiyaga olish (patronat) to'g'risidagi nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi Qaroriga muvofiq amalga oshiriladi.

Ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalarni ijtimoiy himoyalash, ular hayotini tashkillashtirish, jumladan, oilaga joylashtirishning muqobil shakllari bilan ta'minlash masalasi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 12-apreldagi 171-sonli Qarorining 3-Ilovasi "Voyaga yetmagan bolalarni farzandlikka va bolalarni oilaga tarbiyaga olish (patronat) to'g'risida"gi Nizomiga muvofiq amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligida 1189-son bilan 2002-yil 18-noyabrda ro'yxatdan o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi Xalq Ta'limi Vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining "Tarbiyalash (patronat) uchun oilalarga beriladigan yetim bolalarni kiyim-bosh, poyafzal bilan ta'minlash hamda bolani o'z tarbiyasiga olgan tutingan ota-onalarga har oylik nafaqa to'lash tartibi to'g'risida"gi Nizomi tarbiyalash uchun oilalarga beriladigan ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalarni moddiy va moliyaviy jihatdan ta'minlanishi masalasini huquqiy jihatdan kafolatlaydi. Bunda moddiy ta'minlash tartibi, mas'ul organ va shaxslar, moddiy ta'minot miqdori va hajmi qayd etilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002-yil 25-yanvardagi "Aholini ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini aniq yo'naltirilgin tarzda qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish to'g'risida"gi Farmoniga muvofiq kam ta'minlangan, 16 yoshgacha bolalari hamda 18 yoshgacha kasb-hunar kollejlari o'qiydigan farzandlari bo'lgan muhtoj oilalarni moddiy qo'llab-quvvatlash ishi tashkil etilmoqda.

“Oilaviy bolalar uylari to`g`risida”gi Nizom (O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007-yil 31-iyuldagi 158-sonli qaroriga Ilova) da oilaviy bolalar uyini tashkil etish tartibi va shartlari, bolalarni oilaviy bolalar uyiga tarbiyalash uchun berish, tarbiyalovchi ota-onalar va tarbiyalanuvchi bolalarning huquq va majburiyatlari, oilaviy bolalar uyi ta`minoti va uni moddiy-texnik ta`minlash masalalari ko`rsatib o`tilgan.

“Vasiylik va homiylik organiga ota-onasining qarovisiz qolgan bolalar to`g`risidagi ma`lumotlarni taqdim etish tartibi haqida”gi Nizom (O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 26-maydagi 110-sonli qaroriga Ilova) da ota-onasining qarovisiz qolgan bolalarni aniqlash va ular to`g`risidagi ma`lumotlarni taqdim etish tartibi ko`rsatib o`tilgan.

2.2. Ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalarga vasiy va homiy tayinlash hamda ularni farzandlikka, oilaga tarbiyaga berish tartibi

Biz ushbu paragrafda ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalarga vasiy va homiy tayinlash hamda ularni farzandlikka, oilaga tarbiyaga berish tartibi haqida mulohaza yuritishdan oldin bolalarning ota-ona qaramog'isiz qolib ketish omillari haqida to'xtalib o'tmoqchimiz.

Bolalarning ota-ona qaramog'isiz qolishiga quyidagi omillar sabab bo'lishi mumkin:

1. Ota-ona vafot etganda. Ma'lumki, bolani tarbiyalash ota-ona vazifasidir. Bola o'z ota-onasidan tarbiya olish huquqini davlat ota-onasi vafot etib qarovsiz qolgan bolaga vasiy yoki homiy tayinlash orqali ta'minlaydi.

2. Ota-onasi sud qarori bilan ota-onalik huquqidan mahrum etilganida yoki ularning ota-onalik huquqi cheklaganda. Oila Kodeksining 79-moddasida ota-ona (ulardan biri)ning ota-onalik huquqidan mahrum qilishi asoslari ko'rsatilgan bo'lib, ular quyidagilardir:

- Ota-onalik majburiyatlarini bajarishdan bosh tortsa, shu jumladan aliment to'lashdan bo'yin tovlasa. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining¹ tushuntirishicha, ota-onalik majburiyatlarini bajarishdan bo'yin tovlaganlik ota-onalik burchlarini uzluksiz ravishda bajarmaslik, o'z bolalariga qanday bo'lmasin g'amxo'rlik qilmaslikni anglatadi. Tabiiyki, bunday harakat (harakatsizlik) bolani halokatga olib kelishi mumkin;

- Uzrsiz sabablarga ko'ra o'z bolasini tug'uruqxona yoki boshqa davolash muassasasidan, tarbiya, aholini ijtimoiy himoyalash muassasasi va shunga o'xshash boshqa muassasalardan olishdan bosh tortsa. Bu holat "tug'uruqxona va bolalarni davolash profilaktoriyasi va o'quv-tarbiya muassasasi komissiyalari tomonidan tegishli tartibda rasmiylashtirilgan bo'lishi lozim";

¹ "Bolalar tarbiyasi bilan bog'liq bo'lgan nizolarni hal qilishda sudlar tomonidan qonunlarni qo'llash amaliyoti to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi Qarori. //Qonun nomi bilan. 1998. №3. –B. 34

- Ota-onalik huquqini suiiste`mol qilsa, bolalarga nisbatan shafqatsiz muomalada bo`lsa, jumladan, jismoniy kuch ishlatsa yoki ruhiy ta`sir ko`rsatsa;
- Muttasil ichkilikbozlik yoki giyohvandlikka muhtalo bo`lgan bo`lsa. Bunday asos bilan ota-onalik huquqidan mahrum qilish javobgarni muomalaga layoqati cheklangan deb topilganidan qat`iy nazar amalga oshirilishi mumkin;
- O`z bolalarining hayoti yoki sog`lig`iga yoxud eri (xotini)ning hayoti yoki sog`lig`iga qarshi qasddan jinoyat sodir qilgan bo`lsa.

Ota-onalik huquqini cheklanishi esa sud tomonidan bolaning manfaatlari hisobga olingan holda, ota-ona ota-onalik huquqidan mahrum qilinmay turib, bola ota-onadan yoki ularning biridan olinishi to`g`risida hal qiluv qarori chiqarilishi bilan amalga oshiriladi. Oila qonunchiligiga binoan, agar ota-onalik huquqi cheklangandan so`ng o`z xulq-atvorini o`zgartirmasa, vasiylik va homiylik organi sud tomonidan mahrum qilish to`g`risida da`vo taqdim etadi.

**3. Ota-onasi kasal bo`lganda.** Ushbu sabab ota-ona qaramog`idan mahrum bo`lishning ob`yektiv sababi hisoblanadi (ota-ona vafoti, ozodlikdan mahrum qilish kabi). Og`ir dardga chalingan ota-ona farzandining tarbiyasi bilan shug`ullanishga imkon topmagach, bolaning hayoti, sog`lig`i uchun xavf tug`dira boshlaydi. “Bunday hollarda vasiylik va homiylik organi bolaning ota-onasi tomonidan ko`rsatilgan shaxsni vasiy yoki homiy etib tayinlashi lozim”¹. Kasal bo`lib qolgan ota-ona jismonan bolasiga g`amxo`rlik qila olmaydi. Boshqa jihatdan esa, o`z harakatlari oqibatlarini to`liq anglab yetadi va kimlar farzandiga munosib tarbiya bera olishini biladi.

4. Ota-onasi sud qarori bilan muomalaga layoqatsiz deb topilganda. Bunday hollarda ota-onaning o`ziga homiylik tayinlanishi lozim bo`ladi. Bolalar ota-onalaridan olinib, vasiylik va homiylik organining qaramog`iga topshiriladi, chunki ota-ona ixtiyorida qoldirish bola uchun xavfli bo`lishi mumkin.

Ota-onasi olti oydan ortiq muddat bo`lmagan hollarda, agar bu bolalarning manfaatlari uchun zarur bo`lsa. “Bola huquqlari to`g`risida”gi Konvensiyaga va O`zbekiston Respublikasi Oila kodeksiga binoan, bola o`z

¹ Антокольская М.В. Семейное право. -М.: Юрист. 2000. –С. 307

ota-onasi bilan birga yashash va ularning g'amxo'rligidan foydalanish huquqiga egadir.

5. Ota-ona bedarak yo'qolganda. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 33-moddasiga binoan, agar fuqaroning qayerdaligi haqida uning yashash joyida bir yil davomida ma'lumotlar bo'lmasa, manfaatdor shaxslarning arizasiga muvofiq sud bu fuqaroni bedarak yo'qolgan deb topishi mumkin.

Bolalarning oilalarda tarbiyalanishining katta ahamiyatga ega ekanligi tufayli tarbiya berishning farzandlikka olish va vasiylik (homiylilik) tayinlash shakllari keng tarqalgan. Biroq, farzandlikka olish uchun bir necha shartlar mavjud bo'lganligi bois, uni amalga oshirish murakkabroq kechadi. Ba'zi hollarda (ota-onalarning vaqtincha boladan uzoqda bo'lishi) bolalarni joylashtirishning bunday shaklini tanlash maqsadga muvofiq bo'lmaydi. Bolalar tarbiyasi uchun qonun yoki maxsus hujjat bilan mas'ul shaxs bo'lishi talab qilinar ekan, ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan hamda hali bolalar muassasalariga joylashtirilmagan bolalarga vasiy (homiylilik) tayinlanishi lozim bo'ladi. Vasiy (homiylilik) tayinlanishi bilan ushbu shaxsga bola tarbiyasi bo'yicha huquq va majburiyatlar beriladi. Ko'rinib turganidek, vasiylik (homiylilik) bolalarni oilada tarbiyalashning eng qulay shaklidir. Ba'zan esa bolani vasiylik (homiylilik)ka olgan shaxslar bilan bola o'rtasida juda yaqin munosabatlar paydo bo'lib, vasiy (homiylilik) bolani farzandlikka olgan hollar ham uchrab turadi.

Demak, ota-ona o'z bolasiga tarbiya berish kabi vazifasini bajara olmasa yoki bajarmasa, vasiylik va homiylilik organlari bu bolaga nisbatan vasiylik (homiylilik) belgilab, uning oilada tarbiyalanishini ta'minlab berishi lozim.

Agar bolani ota-ona (ulardan biri) bilan qoldirish oqibatida ota-onaning xulq-atvori bola uchun xavf tug'dirsa, ota-onani (ulardan birini) ota-onalik huquqidan mahrum qilish uchun esa yetarli asoslar aniqlanmagan taqdirda ham ota-onalik huquqini cheklashga yo'l qo'yiladi. Agar ota-ona (ulardan biri) o'z xulq-atvorini o'zgartirmasa, vasiylik va homiylilik organi sud tomonidan ota-onalik huquqini cheklash to'g'risidagi hal qiluv qarori chiqargandan keyin olti oy o'tgach, ota-onalik huquqidan mahrum qilish to'g'risida da'vo taqdim

etishi shart. Vasiylik va homiylik organi bolaning manfaatlarini e'tiborga olib ota-onani (ulardan birini) bu muddat o'tmasdan turib, ota-onalik huquqidan mahrum qilish haqida da'vo taqdim etishga haqli.

Ota-onalik huquqini cheklash to'g'risidagi da'vo bolaning yaqin qarindoshlari, voyaga yetmagan bolalar huquqlarini himoya qilish majburiyati qonun bilan zimmasiga yuklatilgan organlar va muassasalar, maktabgacha ta'lim muassasalari, umumta'lim muassasalari va boshqa muassasalar, shuningdek prokuror tomonidan taqdim etilishi mumkin.

Ishda ishtirok etuvchi prokuror ishning to'la mohiyati bo'yicha o'z xulosasini berishi, prokurorning boshqa shaxslar huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish maqsadida bergan arizasi bo'yicha qo'zg'atilgan ishlar esa bundan mustasno ekanligi belgilanadi.

Ota-onalik huquqidan mahrum qilinishi ota-onani bolalarni ta'minlash majburiyatidan ozod etmaydi. Shu tufayli da'vo qo'zg'atilgan yoki qo'zg'atilmaganligidan qat'iy nazar birgalikda hal etilishi shartligi O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining qarorida ko'rsatib o'tilgan¹.

Ota-onalik huquqini cheklash to'g'risidagi ishlar, albatta, prokurorning ishtirokida, shuningdek vasiylik va homiylik organlarining qatnashuvida ko'rilishi shart. Ota-onalik huquqini cheklash to'g'risida hal qiluv qarori chiqishi bilan birga, voyaga yetmagan bolaning ta'minoti uchun mablag' undirish masalasi ham sud tomonidan hal qilinishi kerak.

Ota-onalik huquqi cheklangan ota-ona bolani shaxsan tarbiyalash huquqidan, shuningdek bolali fuqarolar uchun qonun hujjatlarida belgilangan imtiyozlar va nafaqalar olish huquqidan mahrum bo'ladi. Ota-onalik huquqining cheklanishi ota-onani bolaga ta'minot berish majburiyatidan ozod qilmaydi.

Ota-onasi (ulardan biri)ning o'ziga nisbatan ota-onalik huquqi cheklangan bola turar joyga bo'lgan mulk huquqini yoki turar joydan foydalanish huquqini

¹ O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining "Bolalar tarbiyasi bilan bog'liq bo'lgan nizolarni hal qilishda sudlar tomonidan qonunlarni qo'llash amaliyoti to'g'risida"gi 1998-yil 11-sentabrda 23-sonli qarori. // O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining Axborotnomasi. 1998. №3. –B. 39-40

saqlab qoladi, shuningdek ota-ona va boshqa qarindoshlari bilan tug'ishganlik faktiga asoslangan mulkiy huquqlarini, shu jumladan meros olish huquqini saqlab qoladi¹.

Ota-ona ikkalasining ota-onalik huquqi cheklangan taqdirda bola vasiylik va homiylik organi qaramog'iga olib beriladi hamda bola manfaatlarini vasiylik va homiylik organi himoya qiladi.

Sud tomonidan ota-onalik huquqi cheklangan ota-onalar o'z bolalarini tarbiyalashga qaratilgan bironta ham harakatni amalga oshira olmaydilar. Masalan, ular bolalari uchun o'quv muassasalari va ta'lim olish shaklini tanlash, ularning shaxsiy xarakteriga ega bo'lgan huquq va manfaatlarini himoya qilish, o'z bolalari nomidan qonuniy vakillik vazifasini bajarish kabi huquqlarga ega bo'lmaydilar. Ota-onalik huquqini cheklash oilaviy munosabatlarni butunlay tugatishni bildirmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Oila Kodeksining 85-moddasida ota-onalik huquqi cheklangan ota yoki ona o'z bolasi bilan ko'rishib turish huquqini hamma vaqt ham saqlab qoladi. Bunday bo'lishi muhim ahamiyatga ega, chunki bu hol kelajakda ota-ona va bolalar o'rtasida ko'ngilga xush yoquvchi munosabatlar vujudga kelishiga sabab bo'lib qolishi mumkin. Bunda huquqdan cheklashda ota-onalarning aybi bo'lmasligini ham hisobga olish kerak, ammo bu huquqni amalga oshirish vasiylik va homiylik organining nazorati ostida va faqat vasiylik va homiylik organining roziligi bilan ota-onalik huquqi cheklangan ota yoki ona o'z bolasi bilan ko'rishishi va muloqotda bo'lishi mumkin. Bundan tashqari ota-onalik huquqi cheklangan ota yoki onaning bola bilan muloqotda bo'lishi uchun, albatta, vasiy (homiy)ning, bolaning tutingan ota-onasi yoki bola tarbiyalanib turgan muassasa ma'muriyatining roziligi ham talab qilinadi.

Ota-onalik huquqi cheklangan ota yoki onaning bola bilan muloqotda bo'lishi, u bilan ko'rishib turishi, bolaning tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatishi

¹ O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksiga sharhlar. -T.: Adolat, 2000. -B. 87

mumkin degan xulosaga kelgan hollarda, vasiylik va homiylik organlari bunday ko'rishishga ruxsat bermasliklari yoki muloqotda bo'lishni ma'n qilishlari mumkin.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, vasiylik va homiylik organlari vasiylikka yoki homiylikka berilayotgan shaxs to'g'risida quyidagi hujjatlarni tayyorlab beradilar:

- Tug'ilganlik haqidagi guvohnoma (pasport) nusxasi;
- Ota-onaning o'limi haqidagi guvohnomalar nusxasi yoki ota-onasining yoki ulardan birining ota-onalik huquqidan mahrum etilganligi, muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklanganligi yoxud bedarak yo'qolgan deb topilganligi haqidagi sud qarori;
- Ota-onalarning bolalarni tarbiyalashdan va ta'minotdan bo'yin tovlaganligi haqidagi, ota-onalarga qidiruv e'lon qilinganligi haqidagi hujjatlar, ichki ishlar, davolash muassasalari va shunga o'xshash boshqa muassasalarning bolalarning ota-onasiz qolganligi to'g'risidagi dalolatnomalari;
- Salomatligi to'g'risida tibbiy muassasaning xulosasi;
- Vasiylik va homiylik organining bolani vasiylik yoki homiylikka olishni xohlayotgan oilaning maishiy turmush sharoitlari oila a'zolarining salomatligi va oilaning boshqa sharoitlari to'g'risidagi tekshiruv dalolatnomalari taqdim etilishi darkor¹.

Konstitutsiyaning 64-moddasida aytilganidek, “ota-onalar o'z farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majburdirlar”. Qonunchiligimizning muvaffaqiyatli jihatlaridan biri shundaki, u bola manfaatlarini ustuvor deb biladi. Shu ma'noda agar oiladagi muhit, sharoit bola manfaatlariga zid bo'lsa, qonunchilik uni ushbu oilada, sharoitda qolishga yo'l qo'ymaydi. Shuningdek, Konstitutsiyada “davlat va jamiyat yetim bolalarni va ota-onalarining vasiyligidan mahrum bo'lgan bolalarni boqish, tarbiyalash va o'qitishni ta'minlaydi...” deb belgilanadi.

¹ Yuldosheva Sh., Qurbonov A. Ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar huquqlarini himoya qilish –T.: TDYuI, 2006. -B. 40

O'zbekiston Respublikasi Oila Kodeksining 179-moddasi "Vasiy va homiy tayinlash tartibi" – deb nomlangan bo'lib, ushbu moddada quyidagi bandlar belgilab berilgan: "Vasiylik va homiylik majburiyatlarini bevosita amalga oshirish uchun vasiylik va homiylik organlari vasiy yoki homiy tayinlaydi.

Vasiy yoki homiy etib voyaga yetgan har ikki jinsdagi fuqarolar ularning roziligi bilangina tayinlanishi mumkin.

Vasiylik yoki homiylik tayinlash lozimligi vasiylik va homiylik organlariga ma'lum bo'lgan vaqtdan boshlab bir oydan kechiktirmay vasiy yoki homiy tayinlanishi lozim.

Vasiy yoki homiy tayinlash vaqtida uning shaxsiy fazilatlari, tegishli majburiyatlarni bajarishga qobiliyati, mazkur shaxs bilan vasiylik yoki homiylikka muhtoj shaxs o'rtasidagi munosabatlar, shuningdek vasiylik yoki homiylikka olinuvchining o'z xohishi e'tiborga olinishi lozim".

1995-yil 21-dekabrda qabul qilingan va 1997-yil 1-martda amalga kiritilgan O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksida farzandlikka olish alohida turdagi fuqarolik holati hisoblanib, ushbu holatni qayd etish FHDYo organlariga topshirilgandi. Mazkur kodeksga 1998-yil 25-dekabrda kiritilgan o'zgartirishlarga ko'ra, farzandlikka olish alohida turdagi fuqarolik holati hujjatlari sirasidan chiqarilib, tug'ilish, o'lim, nikoh tuzilganligi, nikohdan ajralish kabi fuqarolik holati hujjatlarida ularga tegishli o'zgartirishlar kiritish yo'li bilan ifodalanishi belgilandi¹.

Asosan ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan va yetim bolalar, ayni vaqtda faqat voyaga yetmagan bolalarnigina ularning manfaatlarini ko'zlab farzandlikka olinadi. Farzandlikka olish bolani farzandlikka olishni istagan shaxslarning arizasiga binoan hamda vasiylik va homiylik organi (xalq ta'limi, sog'liqni saqlash, ijtimoiy ta'minot bo'limlari, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari – vasiylik va homiylik organlaridir) tavsiyasiga ko'ra

¹ Yuldosheva Sh., Qurbonov A. Ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar huquqlarini himoya qilish –T.: TDYuI, 2006. -B. 44

tuman (shahar) hokimi qarori bilan rasmiylashtiriladi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 12-apreldagi 171-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish Qoidolari"da belgilanishicha, FHDYo organi qabul qilingan hujjatlar asosida tug'ilganlik haqidagi dalolatnoma yozuviga tegishli o'zgartishlarni kiritadi va tug'ilganlik haqida yangi guvohnoma beradi. Farzandlikka oluvchilar bolaning tug'ilishi qayd etilgan daftarga uning ota-onasi deb yozilishi kerak. Bolaning manfaatlaridan kelib chiqib, zarur hollarda bolaning familiyasi, ismi, otasining ismigina emas, balki tug'ilgan sanasi ham bir yildan ortiq bo'lmagan farq bilan o'zgartirilishi mumkin. Agar bola o'n yoshdan oshmagan bo'lsa, tug'ilgan joyi ham O'zbekiston Respublikasi doirasida o'zgartirilishi mumkin.

Voyaga yetgan erkak yoki ayol fuqarolar farzandlikka oluvchilar bo'lishi mumkin. Quyidagi shaxslar farzandlikka oluvchilar bo'lmaydilar:

- Ota-onalik huquqidan mahrum qilingan yoki ota-onalik huquqi cheklanganlar;
- Qonunda belgilangan tartibda muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklanganlar;
- Asab kasalligi yoki narkologiya muassasalarida ro'yxatda turuvchilar;
- Farzandlikka olganligi bekor qilingan sobiq farzandlikka oluvchilar;
- Qasddan sodir qilingan jinoyatlari uchun ilgari hukm qilinganlar.

Qonun o'gay ota va o'gay ona tomonidan farzandlikka olish hollaridan tashqari holatlarda farzandlikka oluvchi va farzandlikka olinuvchilar yoshidagi farq o'n besh yoshdan kam bo'lmasligini shart qilib qo'yadi.

Farzandlikka olinuvchining qarindoshlari, farzandlikka olinuvchi oilasida yashayotgan shaxs, aka-uka, opa-singillarni ular o'rtasidagi qarindoshlik aloqalarini buzmasdan farzandlikka olayotgan shaxslar, o'gay ota va o'gay ona, O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, kasallik, baxtsiz hodisa oqibatida farzandlaridan ajralgan shaxslar farzandlikka olishda ustunlik huquqiga egadirlar. Qoida tariqasida, o'n yoshga to'lgan bolani farzandlikka olish uchun uning roziligi talab qilinadi. Farzandlikka olish uchun bolaning roziligi vasiylik

va homiylik organi tomonidan aniqlanadi. Agar bola er-xotinning har ikkalasi tomonidan farzandlikka olinayotgan bo'lsa, bunday hollarda er (xotin)ning roziligi ham talab etiladi. Shuningdek, bolani farzandlikka olish uchun farzandlikka olinayotgan bola ota-onasining roziligi ham talab etiladi. Ammo quyidagi hollarda ota-onaning rozilgisiz farzandlikka olishga yo'l qo'yiladi:

- Ota-onaning kimligi noma'lum bo'lsa;
- Ota-ona ota-onalik huquqidan mahrum qilingan bo'lsa;
- Ota-ona muomalaga layoqatsiz, bedarak yo'qolgan deb topilgan yoki vafot etgan deb e'lon qilingan bo'lsa;
- Ota-ona bir yildan ortiq muddat davomida bolalar yoki davolash muassasalaridagi bolasidan uzrli sabablarsiz xabar olmagan bo'lsa.

Farzandlikka olingan bolalar barcha shaxsiy va mulkiy huquqlarda farzandlikka oluvchining o'z bolalariga tenglashtiriladi. Ayni vaqtda farzandlikka olinganlar va ularning ota-onasi (shuningdek, qarindoshlari) birlariga nisbatan shaxsiy va mulkiy huquqlarni yo'qotadilar hamda o'zaro majburiyatlardan ozod bo'ladilar.

Farzandlikka oluvchilar o'z zimmalaridagi majburiyatlarni bajarishdan bo'yin tovlamayotgan yoki ularni lozim darajada bajarmayotgan bo'lsalar, ota-onalik huquqini suiiste'mol qilayotgan bo'lsalar, farzandlikka olinuvchilarga nisbatan shafqatsizlik bilan muomalada bo'lsalar, muttasil ichkilikbozlikka yoki giyohvandlikka muhtalo bo'lgan bo'lsalar, farzandlikka olish bekor qilinadi.

Bolaning hayoti va sog'lig'i bevosita xavf ostida qolganda, vasiylik va homiylik organi bolani ota-onadan (ularning biridan) yoki bolani o'z qaramog'iga olgan boshqa shaxslardan zudlik bilan olishga haqlidir. Bolani zudlik bilan olish fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organining tegishli hujjatiga asosan amalga oshiriladi¹.

Bola farzandlikka olinganda vasiylik va homiylik organi tezda prokurorga xabar berishi, bolani vaqtincha muayyan yerga joylashtirishi va fuqarolarning

¹ Yuldosheva Sh., Qurbonov A. Ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar huquqlarini himoya qilish –T.: TDYuI, 2006. -B. 46

o`zini-o`zi boshqarish organi bolani olish to`g`risida hujjat qabul qilganidan keyin yetti kun ichida ota-onani ota-onalik huquqidan mahrum qilish yoki ularning ota-onalik huquqini cheklash to`g`risida sudga da`vo bilan murojaat etishi shart.

Bolani uning otasi yoki onasidan, shuningdek, uni qaramog`iga olgan boshqa shaxslardan olish fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organining hujjatiga asosan amalga oshiriladi.

Bolani ota-onasidan yoki qaramog`ida saqlab turgan shaxsdan ajratib olish uchun asos bo`lsa, uning sog`lig`i yoki hayotiga oilada vujudga kelgan xavfli muhitning o`zi kifoya bo`ladi.

Bolani ota yoki onasidan yoxud uni qaramog`idan asrab turgan shaxsdan ajratib olgan vasiylik va homiylik organi zudlik bilan bu haqida prokurorga xabar qiladi va bolani vaqtincha muayyan yerga joylashtirish choralarini ko`radi. Fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organi tomonidan bolani olish haqida tegishli hujjatlar rasmiylashtirilgandan keyin yetti kun ichida vasiylik va homiylik organi yoki prokuror da`vo ariza bilan sudga murojaat qilishi kerak¹.

Da`vo arizada bolaga nisbatan uning ota yoki onasini yoxud har ikkalasini ham ota-onalik huquqidan mahrum qilish yoki ularning ota-onalik huquqlarini cheklash to`g`risidagi masalani hal qilish talabini qo`yadi.

Ayrim hollarda voyaga yetmagan bolalarning otasi yoki onasining ruhiy kasalligi ularning oilada yashashi va normal tarbiyalanishi uchun imkoniyat bermaydi. Bunday ota-onalarni ham ota-onalik huquqidan mahrum qilish uchun hamma vaqt yetarli asos bo`lavermaydi. Ular faqat kasalliklari tufayli bolalarini tarbiyalash bo`yicha majburiyatlarini ado etmaydilar. Ammo voyaga yetmagan bolalarni bunday oilada qoldirish ham ular uchun xavfli muhitni tug`diradi. Bunday holarda, sud bolaning ota-onalarini ota-onalik huquqidan mahrum qilmasdan uni olib, tegishli tarbiya muassasalariga joylashtirish haqida qaror chiqarishi mumkin.

¹ Yuldosheva Sh., Qurbonov A. Ota-ona qaramog`idan mahrum bo`lgan bolalar huquqlarini himoya qilish –T.: TDYuI, 2006. -B. 47

Bolalarni ota-onasidan yoki qaramog`ida bo`lgan boshqa shaxslardan olish masalasi sud tomonidan da`vo ishlarini yuritish tartibida ko`riladi. Bolani olish haqidagi da`vo ariza vasiylik va homiylik organi tomonidan, davlat va jamoat tashkilotlari tomonidan, bolani vasiy yoki homiysi, ota-onalardan biri va prokuror tomonidan berilishi mumkin. Bunday da`vo ishlari albatta, vasiylik va homiylik organi hamda prokurorning ishtirokida ko`rilishi kerak.

Ota-onadan birining yoki har ikkalasining o`rtasida vujudga kelgan bola tarbiyasi bilan bog`liq nizolar voyaga yetmagan bolalar tarbiyasini nazorat qiluvchi va bolalar huquqini himoya qilish majburiyati zimmalariga yuklatilgan organlarning, fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organining, shuningdek, prokurorning talabiga asosan ko`riladi. Birinchi navbatda bola tarbiyasiga oid nizolar vasiylik va homiylik organi tomonidan ko`rilishi mumkin. Qonunda nazarda tutilgan hollarda vasiylik va homiylik organlarining bola tarbiyasiga doir qarorlari bajarilmagan hollarda, masala sud tartibida ko`rib chiqiladi.

Vasiylik va homiylik organlari nafaqat o`zlari qo`zg`atgan ishlari bo`yicha, balki boshqalar tomonidan qo`zg`atilgan ishlarni ko`rilishida, bolalarning huquqlarini va manfaatlarini himoya qilish borasida sud jarayonida ishtirok etib, xulosa berishga majburlar.

Vasiylik va homiylik organlari ota-onalarning voyaga yetmagan o`z bolalarini tarbiyalash bilan bog`liq majburiyatlarini qanday bajarayotganlari ustidan nazorat olib borish bilan birga, ularga o`z ota-onalik huquqlarini amalga oshirishda ko`maklashadilar. Zarur hollarda voyaga yetmagan bolalarga o`z huquqlari va majburiyatlarini himoya qilishda yordamlashadilar.

III-BOB. O`ZBEKISTONDA VASIYLIK VA HOMIYLIK ORGANLARINING OTA-ONA QARAMOG`ISIZ QOLGAN BOLALARNI IJTIMOIIY HIMOYALASHDAGI O`RNINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

3.1. Ota-ona qaramog`isiz qolgan bolalarni ijtimoiy himoyalash jamiyat barqarorligi omili sifatida

Ma`lumki, o`zbek xalqi azaldan o`zining bolajonligi, oilaparvarligi bilan ajralib turadi. Albatta, farzandga mehr qo`yish, ularning qornini to`q, ustini but qilish o`z yo`li bilan, lekin bolalarimizni yoshlik chog`idan boshlab milliy tarbiya, axloq-odob, yuksak ma`naviyat asosida voyaga yetkazish biz uchun doimo dolzarb ahamiyat kasb etib kelgan. Bu masalaga e`tibor bermaslik nafaqat ayrim ota-onalar, balki butun jamiyat uchun juda qimmatga tushishini ham ko`pgina hayotiy misollarda ko`rish mumkin.

Aqli raso har qaysi inson yaxshi anglaydiki, bu yorug` dunyoda hayot bor ekan, oila bor. Oila bor ekan, farzand deb atalmish bebaho ne`mat bor. Farzand bor ekan, odamzot hamisha ezgu orzu va intilishlar bilan yashaydi¹.

Bugungi kunda ota-ona qaramog`isiz qolgan bolalarni ijtimoiy himoyalash masalasi davlat siyosati darajasidagi masalalarga aylanib borayotgan bir davrda ularni ijtimoiy himoyalash vazifasi turli darajadagi tashkilot va muassasalarning diqqat e`tibori markazidagi masalalar qatoriga kirib bormoqda.

Mamlakatimizda ota-ona qaramog`isiz qolgan bolalar sonining ko`payish holati jamiyatimiz, davlatimiz kelajagiga salbiy ta`sir ko`rsatishi mumkin, chunki barcha bolalar davlatning, jamiyatning kelajagi hisoblanishadi.

Jamiyatimizning asosiy bo`g`ini sifatida oila institutini yanada mustahkamlash va rivojlantirish, yosh oilalarni moddiy va ma`naviy qo`llab-quvvatlash bo`yicha bugungi kunda olib borilayotgan ishlarni yangi pog`onaga ko`tarish, mahallaning ushbu ishlardagi roli va ahamiyatini kuchaytirish, ayollar uchun yanada keng imkoniyatlarni yaratish, jismoniy sog`lom, ma`naviy yetuk va barkamol avlodni tarbiyalash bugungi kunning

¹ Karimov I.A. Yuksak ma`naviyat – yengilmas kuch. –T.: Ma`naviyat, 2008. –B. 55-56

dolzarb masalalaridandir. Zero, oila faravonligini yanada oshirish va shu bilan butun xalqimiz farovonligini oshirish haqida gap boradi¹.

Ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarni qo'llab-quvvatlashning muqobil shakllarini izlab topish hamda ularni hayotga keng tadbqiq qilish masalasi ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga ega bo'lib borayotgan bir davrda ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalarni oilaga tarbiyaga berish, ularni hayotga har tomonlama tayyorlash bugungi kunning dolzarb mavzularidan biri hisoblanadi. Huquqiy, ijtimoiy, iqtisodiy, pedagogik, psixologik sharoitlar o'zaro muvofiqligini ta'minlash ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalarning jamiyatda mustaqil hayotga to'la tayyorlanishini, jamiyatga samarali integratsiyalashuvini ta'minlashning garovi bo'lib hisoblanadi.

Bugungi kunda himoyaga muhtoj bolalarning, jumladan, ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalarning ijtimoiy moslashuvi mamalakatimiz oldida turgan dolzarb muammolardan biridir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek, "Bugungi kunda bizning qilayotgan barcha ishlarimiz farzandlarimizning baxtu saodati, ularning yorug' kelajagi uchun amalga oshirilmoqda. Lekin baxtu saodat faqat boylik, molu mulk bilan belgilanmaydi. Odobli, bilimdon va aqlli, mehnatsevar, iymon-e'tiqodli farzand nafaqat ota-onaning, balki butun jamiyatning eng katta boyligidir.

Shu haqiqatdan kelib chiqqan holda, yoshlarimizni har tomonlama sog'lom va barkamol etib tarbiyalash, hayot abadiyligi, avlodlar davomiyligini ta'minlaydigan ma'naviyat qo'rg'oni bo'lmish oilani mustahkamlash bugungi kunda barchamizning nainki asosiy vazifamiz, balki insoniy burchimizga aylanishini istardim"².

Bola shaxsining rivojlanishi va ijtimoiylashuvi jarayoniga mikromuhit sharoitining shartli ta'siridir. Shaxs rivojlanishi ijtimoiy va biologik omillar ta'siri asosida yuzaga keladi, biroq so'nggi vaqtlarda ta'sir etishning ahamiyati

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning Vazirlar Mahkamasi yig'ilishida 2011-yil asosiy yakunlari va 2012-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning eng muhim ustuvor vazifalari to'g'risidagi nutqidan

² Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –T.: Ma'naviyat, 2008. –B. 56-57

ortib bormoqda. Ijtimoiy sharoit, shuningdek, oiladagi ota-ona munosabati ko'p hollarda bolada atrof-muhitga bo'lgan munosabatlar tizimini belgilaydi. Shuning uchun turli sohalar tomonidan oilada insonning shaxs bo'lib rivojlanishi, ijtimoiylashuvi, shaxsning o'zaro ta'siri kelgusidagi ijtimoiy psixologik aspekt sifatida o'rganilmoqda¹.

Ijtimoiylashuv ijtimoiy rollar va madaniyat me'yorlarini egallash, jamiyatning to'laqonli a'zosi sifatida tan olinish, qadriyatlar hamda me'yor, bilimlarning aniq tizimini aks ettirish va barcha ijtimoiy jarayonlarning yig'indisi sifatida tushuniladi.

Bolalar - hayot go'zalligidir, ammo bolaning tug'ilishi – bu ota-ona uchun o'ziga xos mas'uliyatni yuklaydi. Ota-ona bo'lish arafasida ular avvalo farzandiga eng yaxshi narsalarni berishni orzu qiladi. Ota-onaning o'z farzandiga bo'lgan bolalikdagi iliq hissiy munosabati uning shaxsini shakllanishida muhim ahamiyatga ega bo'lib, uning kelgusidagi psixik rivojlanishini va ijtimoiylashuviga bevosita ta'sir etadi, mustaqil hayotining mazmunini belgilaydi, shuningdek ota-onaning bolaga bo'lgan xarakter munosabati unig shaxsini shakllanishida asosiy omil hisoblanadi.

Bolalar va yoshlarning jismoniy, intellektual va ma'naviy rivojlanishi uchun eng yaxshi va qulay sharoitlarni yaratish, shuningdek, ko'p bolali oilalarni, yetim bolalarni va oila muhitidan mahrum bo'lgan bolalarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi².

Ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalarni oilada tarbiya topishi, ular uchun sog'lom turmush tarzini, shuningdek, samarali ijtimoiylashuvini ta'minlash bugungi kunda davlatimiz oldida turgan dolzarb masalalardan biridir. Bu borada O'zbekiston Respublikasining amalga oshirilayotgan ijtimoiy siyosatida bir qator chora tadbirlar ishlab chiqildi, jumladan, ota-ona qaramog'isiz qolgan

¹ Tadjiyeva S.X. Yetim va himoyaga muhtoj bolalarning ijtimoiylashuvi masalalari: muammo va yechimi. // Bola va zamon. №2. 2008. –B. 32

² Saidov A.X. Bola huquqlari monitoringi. O'quv-uslubiy qo'llanma. T.: Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy Markazi, 2011. –B. 5

bolalarning huquq va manfaatlari himoya qilinishini ta'minlash, ular uchun oilaviy sharoitlarga yaqinlashtirilgan zarur sharoitlar yaratish, oilaviy bolalar uylarini rivojlantirish maqsadida ko'pgina huquqiy-normativ hujjatlar qabul qilindi. Yuqorida bu borada qabul qilingan huquqiy-normativ hujjatlar haqida batafsil to'xtalib o'tildi. Sanab o'tilgan huquqiy-normativ hujjatlarda belgilangan mexanizmlar ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalarni oilaga tarbiyaga olish uchun barcha imkoniyatlarning mavjudligini ko'rsatadi.

Yetim va ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalarga yordam ko'rsatish borasida uzoq va ma'noli tarixga ega bo'lgan mamlakatimizda bugungi kunda asosiy e'tibor tanglik vaziyatida qolgan oilalarga yordam berish orqali yetim va ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalarni himoyalash borasida olib borilayotgan ijtimoiy siyosatining asosiy maqsadi bolalarni sog'lom turmush tarzini ta'minlash, jismonan hamda psixologik jihatdan muammosiz rivojlanib, jamiyatda samarali ijtimoiylashuvini qo'llab-quvvatlashga, oilada tarbiya olishi uchun imkoniyat yaratishga qaratilmoqda. Bu esa fundamental va uzoq muddatli xarakterga ega. Biroq, oilalarga va yosh ota-onalarga alohida hayotiy muammolarni yechishda manzilli yordam berish, qo'llab-quvvatlash orqali oilani tiklash va mustahkamlash mumkin. Mazkur ishlarni amalga oshirish jamiyat va davlatda "oilani ijtimoiy qo'llab-quvvatlash", "oilalar va bolalar bilan ijtimoiy ish" sifatida ifodalanadi. Shu bois, bo'lg'usi yosh onalarga va farzandidan voz kechishni niyat qilib qo'ygan ota-onalarga hayot yo'lida duch keladigan u yoki bu qiyinchiliklarni bartaraf etishida jamiyat va davlat tomonidan ko'rsatiladigan yordam haqidagi zarur ma'lumotlardan xabardor etish zarurligini bugungi kun taqozo etadi.

Ijtimoiy yetimlikni oldini olish bo'yicha quyidagilarni amalga oshirish lozim:

- Shaxslar bilan ijtimoiy yetimlikni oldini olishga yo'naltirilgan ijtimoiy ishni olib borish;
- Hayotiy qiyin vaziyatda qolgan ota-onalarga, endigina chaqaloqni dunyoga kelgan bolalar onalarni ijtimoiy himoyalash;

- Voyaga yetmagan farzandi bor tanglik vaziyatida qolgan onalarni yashashlari uchun joy bilan ta'minlash va psixologik yordamni taqdim etish;
- Farzandidan voz kechishni niyat qilib qo'ygan onani va bola manfaatlari hamda huquqlarini himoya qilishga o'rgatish va onalik mas'uliyatini his qilib o'z majburiyatini amalga oshirishga yordam berish;
- Voyaga yetmagan farzandini o'zi tarbiyalashga qaror qilgan yosh ota-onalarning ta'lim olishiga, mutaxassislikka ega bo'lishi, mustaqil hayot ko'nikmalarini egallashiga yordam berish;
- Qiyin davrlarni boshlaridan kechirayotgan yosh ota-onalarga o'z farzandlarini mustaqil parvarish qilishlari uchun ularga yordam berishda ijtimoiy ishchilar, psixologlarni maxsus tayyorlash.

Hozirgi vaqtda mamlakatimizda yetim va ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalarning joylashtirishning muqobil shakllarini yaratish va qo'llab-quvvatlash bo'yicha ko'pgina ishlar amalga oshirilmoqda.

2012-yil 20-21-noyabrda Toshkentda bo'lib o'tgan bolalarning ijtimoiy himoyasiga bag'ishlangan IX-Xalqaro Forum buning yaqqol misoli bo'lib hisoblanadi. Forum doirasida Lola Karimova-Tillayeva "Sen Yolg'iz Emassan" RBBJ ning hamda RBIMM ning ota-ona qaramog'isiz qolgan hamda imkoniyati cheklangan bolalarning ijtimoiy himoyasi sohasidagi faoliyatiga bag'ishlangan ma'ruza bilan ishtirok etdi.

Forumda Lola Karimova-Tillayeva deinstitutionalizatsiya va bolalarning institutsional muassasalarga kelib tushishini oldini olish bo'yicha amalga oshirilayotgan ish jarayonlarining taraqqiy etishida Jamg'armaning roli to'g'risida to'xtalib o'tdi. Ushbu yo'nalishdagi faoliyat Xalq ta'limi vazirligi, Mehribonlik uylari ma'muriyati hamda xalqaro tashkilotlar bilan birgalikda amalga oshirilib kelmoqda.

Bolalar muassasalarini tamomlab, mustaqil hayotga qadam qo'ygan yoshlarga yordam berish bo'yicha ham Jamg'arma xodimlari faol ishlab keladilar. Jamg'arma faoliyati mobaynida 350 dan ortiq Mehribonlik uyi

bitiruvchilariga uy olishda yordam amalga oshirilib, 700 dan ortiq tarbiyalanuvchilarning o'z turar joylarida yashash huquqi tiklandi.

Bugungi kunda “Sen Yolg'iz Emassan” RJB O'zbekistondagi eng yirik bolalar jamg'armasi hisoblanadi. Ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalar uchun mo'ljallangan muassasalar bilan ishlash Jamg'arma faoliyatida asosiy o'rinni egallaydi. Bu mamlakatimizdagi Mehribonlik uylari, Go'daklar uylari, Bolalar shaharchalari va ixtisoslashtirilgan internat tarbiyalanuvchilaridir.

“Sen Yolg'iz Emassan” RJB faoliyati davomida bolalikning ijtimoiy himoyasi sohasida ahamiyatli ishlarni amalga oshirdi va ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalarning hayoti, ma'lumoti va sog'ligini yaxshilash bo'yicha ijobiy natijalarga erishdi.

Ota-ona mehrining yetishmasligi oqibatida vujudga kelgan bolalar muammolarini hal etishda, ruhiy uyg'unlikni, hayotga va o'zlariga bo'lgan ishonchni qo'lga kiritishlarida Jamg'arma bolalar uchun suyanch bo'lishga intilmoqda. Ota-ona mehridan bebahra qolgan bolalar huquqlarini himoya qilish, ularning intellektual va ijodiy rivojlanishida, kasb tanlashida ko'mak berish, psixologik yordam ko'rsatish, mustaqil hayotga chiqishida yordam berish hamda ijtimoiy ko'makka muhtoj oilalarga yordam ko'rsatish Jamg'arma faoliyatida asosiy o'rin egallaydi.

O'zbekistonda qadim zamonlardan yetimlarga mehr ko'rsatish milliy qadriyatlardan biri hisoblanadi va bugungi kungacha o'z ahamiyatini saqlab kelmoqda. O'zbek maqollarida ham bir bolaga yetti qo'ni-qo'shni ota-ona deb ta'kidlanadi. Agar bola yetim yoki ota-ona qaramog'isiz qolsa ham u qarindoshlarinikida tarbiyalanadi. Shuningdek, ko'p bolali oilalarga ularning qarindoshlari o'qishlarida, tarbiyalarida ko'mak beradilar. Tabiiy ravishda shakllanib, rivojlangan qo'llab-quvvatlashning ushbu shakli ham qiyin sharoitda qolgan oilalar bolalarini joylashtirishning muqobil shakllari hisoblanadi.

Ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalarni joylashtirishning muqobil shakllari bo'yicha turli davlatlar qonun hujjatlarini o'rganish qonunchilik aktlarida

ota-ona - tarbiyachilarning tayyorlashga hamda oilani psixologik-pedagogik va ijtimoiy kuzatuviga alohida e'tibor qaratilganligini aniqlashga imkon berdi.

Bugungi kunda patronat tarbiyasiga alohida e'tibor qaratilishining sababi shundaki, patronat tarbiyasi bolani oilaga joylashtirishning bolaning psixik va jismoniy rivojlanishida, ijtimoiylashuvida, oila haqidagi bilim, malaka va tajribani egallashida zarur bo'lgan asosiy shakli hisoblanadi. Shubhasiz, bolalarni patronat tarbiyasiga joylashtirishning psixologik aspektlari muhim ahamiyatga ega. Biroq bolaning oilada ota-ona va oila a'zolarining o'zaro ta'siri ostida tarbiya topishi o'ziga xos xususiyatga ega. Bola patronat singari kasbiy oilaga tushish jarayonida faqatgina kattalar bilan munosabatni emas, balki oila a'zolari o'rtasidagi yaxlit o'zaro munosabatni ko'radi. Oila bu pedagogik-psixologik ta'sir birligi, onalik-bolalik sub tizimini o'z tarkibiga oladigan, bolaning doimiy rivojlanishiga ta'sir etuvchi zarur jarayon hisoblanadi¹.

Oilalardagi ijtimoiy-iqtisodiy tanglik, ota-onalar axloqiy asosining buzilish tendensiyasi, boshqa salbiy ijtimoiy ko'rinishdagi bir qator ustuvor muammolar bugungi kunda bolalarning jamiyatga integratsiyalashuvi vazifasini ko'ndalang qo'ydi.

Ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalarning huquqlarini himoya qilishni ta'minlash uchun O'zbekiston Respublikasi Oila Kodeksida bolalarni joylashtirish shakllaridan farzandlikka olish, vasiylik (homiylilik) tutingan oila (patronat) va davlat muassasalariga joylashtirish ko'zda tutilgan.

O'zbekiston Respublikasining Oila Kodeksining 173-moddasida "Vasiylik va homiylik ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarga ta'minot berish, ularni tarbiyalash va ularga ta'lim berish, shuningdek bunday bolalarning shaxsiy hamda mulkiy huquq va manfaatlarini himoya qilish uchun belgilanadi" - deb ko'rsatilgan.

Davlatimiz tomonidan yetimlikning oldini olish maqsadida bolalarni joylashtirishning uchta rivojlantiruvchi asosiy modeli – farzandlikka olish,

¹ Tadjiyeva S.X. Patronat tarbiyasi bilan bog'liq psixologik muammolar yechimi. // Bola va zamon. №3, 2008. –B. 15

vasiylilik va homiylikni belgilash, patronatga berish ishlari amalga oshirilmoqda. Oxirgi model oila va himoyaga muhtoj bolaga ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan eng qulay bo'lgan va asosiy ustun turuvchi modeldir.

Shubhasiz, bola tarbiyasida eng yaxshi natija ko'rsatadigan muhit - bu oila hisoblanadi. Patronat oila shular jumlasidandir. Patronat - ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalar muhtoj bo'lgan, aynan oila o'rnini bosuvchi parvarishni ko'rsatishga qodir eng maqbul model hisoblanadi.

Ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalarni patronat oilalarga joylashtirish va mazkur oiladagi muammolarni bartaraf etish bolalarning jamiyatga samarali integratsiyalashuvida muhim ahamiyatga ega.

1951-yildayoq ingliz olimi J.Boulbi o'z tadqiqotlarida yetim bolalar uchun muassasalarda tarbiyalash salbiy ta'sirlarini isbotlab bergan. U tarbiya modeli sifatida ijtimoiy tarbiyaga muhtoj (yetim) bolalar muassasalaridan voz kechish zarurligi to'g'risidagi fikrni tasdiqladi.

Dunyoning ko'pgina mamlakatlarida deinstitutionalizatsiya (ya'ni, bolalarni Mehribonlik uylari va go'daklar uyidan imkoniyatga qarab biologik oilaga qaytarish, agarda bunday imkoniyat bo'lmasa, ularni tutingan oilaga joylashtirish) muammosi va uni hal etish usullari to'g'risida fikr bildirilmoqda. Bundan tashqari iqtisodiy hisob-kitoblar ota-ona qaramog'isiz bolalar uchun muassasalarning tarbiya modeli iqtisodiy jihatdan besamar ekanligini ko'rsatdi.

Rivojlangan davlatlarda ota-onalar o'z farzandlarini parvarish qila olishlari uchun oilaga yordam ko'rsatishga intiladilar. Ayrim vaziyatlarda bolani tutingan ota-onaga berish kabi choralarni qo'llaydilar¹.

Aynan oila bolaga ijobiy ta'sir ko'rsatadi va oila o'rnini hech qaysi tarbiyaviy muassasa bosa olmaydi.

Xalqaro ijtimoiy ish amaliyotda oilaga joylashtirishning boshqa shakllari ham ma'lum, ularni quyidagicha tasniflash mumkin:

¹ ЮНИСЕФ. Социальный мониторинг. Исследовательский центр ЮНИСЕФ "Инноченти" (Флоренция). 2002. -С. 17

- Bolalarni joylashtirishning oilaviy shakllari: farzandlikka berish; vasiylik (homiylilik);
- Bolalarni joylashtirishning davlat-jamoat shakllari: oilaviy bolalar uyi (tutingan oila), SOS - bolalar mahallalari, vaqtinchalik tutingan oila, foster oila, patronat oila;
- Bolalarni davlat muassasalariga joylashtirish: go`daklar uyi, bolalar uylari (Mehribonlik uyi), internat-maktablar, bolalarni vaqtinchalik parvarish qilish markazlari.

Shu bilan bir qatorda, O`zbekistonda ota-ona qaramog`isiz qolgan bolalarning ijtimoiylashuvlari borasidagi ishlarni amalga oshirishda xorijiy tajribalar, jumladan, AQSh, Germaniya, Ukraina va Rossiyada ishlab chiqilgan ijtimoiy yordam tizimini o`rganish ham e`tiborga molikdir. Bolalarning oilalarda tarbiyalanishining katta ahamiyatga ega ekanligi tufayli tarbiya berishning farzandlikka olish va vasiylik (homiylilik) tayinlash shakllari keng tarqalgan.

Shunday qilib, bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan harakatlar, jumladan, tanglik vaziyatida qolgan oilalarga, farzandidan voz kechishni niyat qilib qo`ygan ota-onalarga yordam berish, bolalarni yangi oilalarga joylashtirish, bolalarni institutsional muassasadan oilaga qaytarish, bolalarni o`z tarbiyasiga oluvchi nomzodlarni o`rganish kabi amalga oshirilayotgan ishlar ota-ona qaramog`isiz qolgan bolalarni kelgusida sog`lom turmush tarzini ta`minlash, oilada tarbiya olishi uchun imkoniyat yaratadi.

3.2. Mamlakatimizda vasiylik va homiylik organlarining ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalarni ijtimoiy himoyalashdagi o'rnini sotsiologik tadqiqotlar asosida takomillashtirish

O'zbekiston Respublikasida ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalarni ijtimoiy himoyalash masalasi davlat siyosati darajasidagi masalalarga aylanib borayotgan bir davrda ularni ijtimoiy himoyalash vazifasi turli darajadagi tashkilot va muassasalarning diqqat e'tibori markazidagi masalalar qatoriga kirib bormoqda.

Bugungi kun ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarni, jumladan ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalarni qo'llab-quvvatlashning muqobil shakllarini izlab topish hamda ularni amaliyotga keng tadbiiq qilish masalasi ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga ega bo'lib borayotgan bir davrda ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalarni oilaga tarbiyaga berish, ularni hayotga har tomonlama tayyorlashni talab etmoqda.

Mamlakatimizda vasiylik va homiylik organlarining ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalarni ijtimoiy himoyalashdagi o'rnini takomillashtirish masalasini samarali hal qilish uchun amaliy tadqiqotlarni amalga oshirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biriga aylanib bormoqda.

Bitiruv malakaviy ishini yozish davomida mamlakatimizdagi ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalarni ijtimoiy himoya qilish tiziminining o'ziga xos xususiyatlari hamda bu borada vasiylik va homiylik organlarining o'rnini ifoda etuvchi jarayonlar masalasi bo'yicha yanada ko'proq fikr-mulohazalar olish maqsadida "Mamlakatimizda vasiylik va homiylik organlarining ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalarni ijtimoiy himoyalashdagi o'rnini takomillashtirish" mavzusidagi sotsiologik tadqiqot dasturi ishlab chiqildi. **(1-ilova)**

Sotsiologik tadqiqot dasturi asosida sotsiologik tadqiqot savolnomasi tuzildi. **(2-ilova)**


Sotsiologik so'rovnoma A.Navoiy nomidagi Samarqand davlat universiteti "Ijtimoiy ish" kafedrası, Samarqand shahar bandlikka ko'maklashish va aholini ijtimoiy

muhofaza qilish qilish markazi hamda Samarqand shahar 9-son Mehribonlik uylarida o'tkazildi.


Sotsiologik so'rovnoma jami 100 nafar respondentlar anketa so'rovlariga javob berdilar. Ushbu anketa so'rovlarida mamlakatimizda ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalarni ijtimoiy himoyalash tizimini takomillashtirish masalasida respondentlarning fikrlarini aniqlashga e'tibor qaratildi.

Mazkur sotsiologik so'rovnoma respondentlarning savollarga bergan javoblarini umumlashtirilgan holda o'rganildi. So'rovnoma natijalari quyidagilardan iborat:

1. **“Sizningcha, oila baxti nimalarga bog'liq?”** – degan savolga respondentlarning 42% i “Er-xotinning bir-birini tushunishiga”, 10% i “Erning sodiqligi, xotinning oqilligiga”, 48% i “Farzandlarning oilada to'g'ri tarbiyalanganligiga” – degan javobni berganlar.



2. **“Ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalarni ijtimoiy himoyalashga taalluqli qanday milliy qonunchilik normalaridan xabardorsiz?”** – degan savolga respondentlarning 86 % i so'rovnoma keltirilgan barcha milliy qonunchilik normalaridan xabardorligini, 6 % i “Voyaga yetmagan bolalarni farzandlikka va bolalarni oilaga tarbiyaga olish (patronat) to'g'risida”gi Nizom haqida ma'lumotga ega emasini, 8 % i “Oilaviy bolalar uylari to'g'risida”gi Nizom haqida ma'lumotga ega emasini bildirgan.




- So'rovnoma keltirilgan barcha milliy qonunchilik normalaridan xabardor
- “Voyaga yetmagan bolalarni farzandlikka va bolalarni oilaga tarbiyaga olish (patronat) to'g'risida”gi Nizom haqida ma'lumotga ega emas
- “Oilaviy bolalar uylari to'g'risida”gi Nizom haqida ma'lumotga ega emas

3. “Mamlakatimizda ota-ona qaramogʻisiz qolgan bolalarni ijtimoiy himoya qilishning qanday tizimlarini bilasiz?” – degan savolga respondentlarning 90 % i soʻrovnoma keltirilgan barcha javob variantlaridan xabardorligini, 4 % i “Farzandlikka olish orqali ijtimoiy himoyalash” haqida maʼlumotga ega emasini, 6 % i “Patronat (oilaga) tarbiyaga berish orqali ijtimoiy himoyalash” haqida maʼlumotga ega emasini bildirgan.



4. “Mamlakatimizda ota-ona qaramogʻisiz qolgan bolalarni ijtimoiy himoya qiluvchi qanday muassasalarni bilasiz?” – degan savolga respondentlarning barchasi soʻrovnoma keltirilgan barcha javob variantlaridan xabardorligini bildirganlar.



5. “Mamlakatimizda ota-ona qaramogʻisiz qolgan bolalarni ijtimoiy himoya qiluvchi muassasalar faoliyatini qanday baholaysiz?” – degan


savolga Vasiylik va homiylik organlari faoliyatiga respondentlarning 57 % i “a`lo”, 35 % i “yaxshi”, 8 % i “qoniqarli” baho berganlar.

Mehribonlik uylari faoliyatiga respondentlarning 12 % i “a`lo”, 56 % i “yaxshi”, 32 % i “qoniqarli” baho berganlar.

“Sen Yolg`iz Emassan” Respublika jamoatchilik bolalar jamg`armasi faoliyatiga respondentlarning 80 % i “a`lo”, 14 % i “yaxshi”, 6 % i “qoniqarli” baho berganlar.


Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazi faoliyatiga respondentlarning 78 % i “a`lo”, 14 % i “yaxshi”, 8 % i “qoniqarli” baho berganlar.

“SOS” bolalar mahallalari faoliyatiga respondentlarning 70 % i “a`lo”, 17 % i “yaxshi”, 13 % i “qoniqarli” baho berganlar.




6. “Ota-ona qaramog`isiz qolgan bolalarga vasiy va homiy tayinlash hamda ularni farzandlikka, oilaga tarbiyaga berish tartibidan xabardormisiz?” – degan savolga respondentlarning 88% i “Ha, bu haqida


yetarli ma'lumotga egaman" – deb, 12 % i "O'rtacha, bu haqida umumiy ma'lumotlarga egaman" – deb javob bergan.




7. "Sizningcha, bolalarning tarbiyasida quyida keltirilganlardan qaysi biri ko'proq mas'ul?" – degan savolga respondentlarning 72 % i "Oila" – deb, 28 % i "Oila-Mahalla-Maktab hamkorligida" – deb o'z fikrlarini berganlar.



8. "Sizningcha, ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalar qayerda tarbiya olgani ma'qul?" – degan savolga respondentlarning 82 % i "Oilada" – deb, 6 % i "Mehribonlik uylarida" – deb, 12 % i "SOS bolalar mahallalarida" – deb javob bergan.




9. **“Sizningcha, bolalarning ota-ona qaramogʻisiz qolib ketish sabablari nimalardan iborat?”** – degan savolga respondentlarning 22 % i “Ota-onalarning bolalarni tarbiyalashga tayyor emasligi” – degan variantni, 26 % i “Ota-onalarning bolalarni tarbiyalashga masʼuliyat bilan yondashmasligi” – degan variantni, 24 % i “Oiladaga iqtisodiy yetishmovchilik” – degan variantni, 28 % i “Ota-onalarni pul ishlash maqsadida xorijga chiqib ketishi” – degan variantni tanlaganlar.



10. **“Sizningcha, mamlakatimizda ota-ona qaramogʻisiz qolgan bolalarni ijtimoiy himoyalashda vasiylik va homiylik organlarining oʻrnini oshirish uchun nimalar qilish lozim?”** – degan savolga respondentlardan quyidagi fikrlar olindi:

- Vasiylik va homiylik belgilanishiga muhtoj boʻlgan shaxslar toʻgʻrisida gʻamxoʻrlik koʻrsatayotgan oilalarni qoʻllab-quvvatlash lozim (28%);

- Vasiylik va homiylik sohasida xalqaro hamkorlikni amalga oshirish lozim (26%);
- Vasiylik va homiylik to'g'risidagi qonun hujjatlari ijrosini ta'minlash lozim (22%);
- Ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalarni joylashtirishning muqobil shakllariga faoliyatni yo'naltirish lozim (12%);
- Oila institutining faoliyatiga ko'proq e'tibor qaratib, moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish lozim (6%).



Mazkur so'rovnoma natijalarining tahlili asosida quyidagi muammolarni hal etish zarurligi ma'lum bo'ldi:

- “Voyaga yetmagan bolalarni farzandlikka va bolalarni oilaga tarbiyaga olish (patronat) to`g`risida”gi, “Oilaviy bolalar uylari to`g`risida”gi Nizom va ularning ijrosi haqida ommani xabardor etish;
- Ota-ona qaramog`isiz qolgan bolalarga vasiy va homiy tayinlash hamda ularni farzandlikka, oilaga tarbiyaga berish tartibi haqida ommani yanada ko`proq xabardor etish;
- Vasiylik va homiylik belgilanishiga muhtoj bo`lgan shaxslar to`g`risida g`amxo`rlik ko`rsatayotgan oilalarni qo`llab-quvvatlash lozim ;
- Vasiylik va homiylik sohasida xalqaro hamkorlikni amalga oshirish lozim;
- Bolalarning ota-ona qaramog`isiz qolib ketishining salbiy oqibatlari haqida bahs-munozarali ko`rsatuvlar tayyorlash va uni OAV orqali ommaga yetkazish;
- Ota-ona qaramog`isiz qolgan bolalarni joylashtirishning muqobil shakllariga faoliyatni yanada ko`proq yo`naltirish;
- Oila institutining faoliyatiga yanada ko`proq e`tibor qaratib, moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish;
- Ota-ona qaramog`isiz qolgan bolalar sonini imkoni boricha kamaytirish bo`yicha yanada ko`proq chora-tadbirlar ishlab chiqish.

XULOSA

O'zbekiston Respublikasida ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalarni ijtimoiy himoyalash masalasi davlat siyosati darajasidagi masalalarga aylanib borayotgan bir davrda ularni ijtimoiy himoyalash vazifasi turli darajadagi tashkilot va muassasalarning diqqat e'tibori markazidagi masalalar qatoriga kirib bormoqda. Bundan tashqari ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalarni qo'llab-quvvatlashning muqobil shakllarini izlab topish hamda ularni amaliyotga keng tadbqiq qilish masalasi ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga ega bo'lib borayotgan bir davrda ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalarni oilaga tarbiyaga berish, ularni hayotga har tomonlama tayyorlash bugungi kunning dolzarb mavzularidan bo'lib, mamlakatimizda tanglik vaziyatida qolgan oilalarga, farzandidan voz kechishni niyat qilib qo'ygan ota-onalarga yordam berish, bolalarni yangi oilalarga joylashtirish, bolalarni institutsional muassasadan oilaga qaytarish, bolalarni o'z tarbiyasiga oluvchi nomzodlarni o'rganish kabi amaliy harakatlar amalga oshirilmoqda. Bunday harakatlar ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalarni kelgusida sog'lom turmush tarzini ta'minlash, oilada tarbiya olishlarining muhim omili bo'lib xizmat qiladi.

Ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalarni ijtimoiy himoyalash - bu davlat hokimiyati va mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlari tomonidan ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalarning boshqa bolalar kabi teng huquqli ravishda rivojlanish va munosib hayot tarzini kechirish yuzasidan huquqi ta'minlanishini kafolatlovchi ijtimoiy, iqtisodiy, tashkiliy va huquqiy choralar tizimidir.

Ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalarning huquqlarini himoya qilish borasidagi xalqaro va milliy darajada qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlarning asosiy tamoyili butun dunyoda bolalar huquqini muhofazasining ta'minlanishi va umuman ijtimoiy yetimlik muammosini oldini olishga qaratilgan bo'lib, ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalarni ijtimoiy-huquqiy jihatdan qo'llab-quvvatlash masalalari ularni yashash joylari bilan ta'minlash, ma'lum bir muassasa yoki shaxslar vasiyligiga berish, ta'lim va tarbiya olishga, sog'lom va barkamol shaxs sifatida shakllanishiga yo'naltirilgan.

Umuman olganda, O'zbekiston Respublikasida ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalar manfaatlarini ijtimoiy himoyalash borasida amalga oshiriluvchi tadbirlarning qonunchilik asosi mavjud bo'lib, ular ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarning ijtimoiy himoyalashini kafolatlaydi.

Huquqiy, ijtimoiy, iqtisodiy, pedagogik, psixologik sharoitlar o'zaro muvofiqligini ta'minlash ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalarning jamiyatda mustaqil hayotga to'la tayyorlanishini, jamiyatga samarali integratsiyalashuvini ta'minlashning garovi bo'lib hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishini yozish davomida shu narsaga amin bo'ldikki, ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalarni oila muhitida tarbiyalash eng maqbul yo'l bo'lib hisoblanadi, chunki oila - jamiyatning asosiy bo'g'ini, bola tarbiyasida eng yaxshi natija ko'rsatadigan muhit bo'lib hisoblanadi. Har bir oilaning farovonligi, oiladagi naslning sog'lomligi, barkamolligi jamiyat farovonligida, davlatning yuksalishida kafil bo'lib xizmat qiladi.

Mamlakatimizdagi ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalarni ijtimoiy himoya qilish tiziminining o'ziga xos xususiyatlarini ifoda etuvchi jarayonlar masalasi bo'yicha yanada ko'proq fikr-mulohazalar olish maqsadida o'tkazilgan "Mamlakatimizda vasiylik va homiylik organlarining ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalarni ijtimoiy himoyalashdagi o'rnini takomillashtirish" mavzusidagi sotsiologik so'rovnoma natijalarining tahlili ota-onalar oilaning muqaddasligini anglagan holda farzand tarbiyasiga mas'uliyat bilan yondashishlari, bolalarning ota-ona qaramog'isiz qolib ketishining salbiy oqibatlarini haqida bahs-munozarali ko'rsatuvlar tayyorlash va uni OAV orqali ommaga yetkazish, ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalar sonini imkoni boricha kamaytirish bo'yicha yanada ko'proq chora-tadbirlar ishlab chiqish zarurligini ko'rsatmoqda.

Mazkur bitiruv malakaviy ishini yozish davomida o'rganilgan, tahlil qilingan tadqiqot natijalari quyidagi taklif va tavsiyalar berish imkonini berdi:

- Vasiylik va homiylik belgilanishiga muhtoj bo'lgan shaxslar to'g'risida g'amxo'rlik ko'rsatayotgan oilalarni qo'llab-quvvatlash;
- Vasiylik va homiylik sohasida xalqaro hamkorlikni amalga oshirish;

- Ota-ona qaramog`isiz qolgan bolalarni ijtimoiy himoyalashning muqobil shakllarini izlab topish hamda ularni amaliyotga keng tadbiq qilish;
- Qiyin hayotiy vaziyatda qolgan oilalar, farzandidan voz kechishni niyat qilib qo`ygan ota-onalar bilan profilaktik tadbirlar olib borish;
- Oilalarga joylashtirilgan bolaning oilada yashashga bo`lgan huquqini ta`minlash tizimini takomillahtirish;
- Ota-ona qaramog`isiz qolgan bolalar huquqlarini himoyalash borasida tutingan ota-onalar huquq va majburiyatlarini ta`minlash tizimini takomillahtirish;
- Ota-ona qaramog`isiz qolgan bolalar hamda ularning biologik oilasi bilan olib boriladigan reabilitatsion yordamli tadbirlarni amalga oshirish;
- Farzandidan voz kechishni niyat qilib qo`ygan ota-onalarni bola manfaatlari hamda huquqlarini himoya qilishga o`rgatish va otalik, onalik mas`uliyatini his qilib o`z majburiyatini amalga oshirishga yordam berish;
- Patronat oilalarning bolalarni jamiyatga samarali integratsiyalashuvini ta`minlovchi ijtimoiy, pedagogik va psixologik resurslarini o`rganish hamda patronat oilada tarbiyalanayotgan bolani psixologik-pedagogik kuzatib borish ishini tashkillashtirish tizimini ishlab chiqish;
- Patronat tarbiyani amalga oshiruvchi va nazoratni olib borishda xayrixohlik qiluvch muassasalar tizimini tashkillashtirish;
- Ota-ona qaramog`isiz qolgan bolalarni ijtimoiy himoyalovchi davlat va nodavlat tashkilotlarning o`zaro hamkorligini kuchaytirish;
- O`zbekiston Respublikasida patronat tarbiya tizimini tashkil etish bo`yicha yo`naltirilgan ishlarni amalga oshirish va bunda "Ijtimoiy ish xodimi" ning vazifalarini belgilash;
- Ota-ona qaramog`isiz qolgan bolalarni patronat tarbiyaga olishni istovchilar uchun maxsus tayyorlov kurslarini tashkil etish;

- Mahallalarda “Ijtimoiy ish xodimi” ish o`rnini yaratish va bu orqali qiyin hayotiy vaziyatda qolgan oilalar bilan ijtimoiy ish olib borish.

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar, jumladan ota-ona qaramog`isiz qolgan bolalar o`sib-ulg`ayishlari va farovonlikka ega bo`lishlari uchun jamiyat doirasidagi majburiyatlarni o`z zimmasiga to`liq oladigan bo`lishiga erishish maqsadida zarur himoya va yordam bilan ta`minlanishi lozim ekanligiga ishonch hosil qilgan holda, bolaning shaxsi sog`lom va har tomonlama uyg`unlashgan holda kamoloti uchun u oila g`amxo`rligida, baxt, mehr-muhabbat va ongli tushunish vaziyatida o`sishi, bola jamiyatda mustaqil hayotga to`la tayyorlanishi va tinchlik, qadr-qimmat, sabr-toqat, erkinlik, tenglik va birdamlik ruhida tarbiyalanishi lozim. Chunki bolalar davlatning, jamiyatning kelajagi hisoblanishadi. Ular voyaga yetishgach, o`sha davlatning, o`sha jamiyatning asosiy boshqaruvchilari bo`lishadi. Shuning uchun ham nafaqat ijtimoiy ish xodimi, balki barcha insonlar bolalarning kamoloti uchun qayg`urishlari va ko`maklashishlari lozim. Zero, bolalarning begonasi bo`lmaydi!

ADABIYOTLAR RO`YXATI:

I. O`zbekiston Respublikasi Qonunlari, Xalqaro huquqiy-normativ hujjatlar:

1. O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.: O`zbekiston, 2013.
2. O`zbekiston Respublikasining Oila kodeksi. –T.: Adolat, 2010.
3. O`zbekiston Respublikasining Kodekslari. –T.: Adolat, 2010.
4. “Bola huquqlari kafolatlari to`g`risida”gi O`zbekiston Respublikasining Qonuni. 2008-yil 7-yanvar.
5. “Vasiylik va homiylik to`g`risida” gi O`zbekiston Respublikasining Qonuni. 02.01.2014
6. Inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi. 10.12.1948.
7. Bola huquqlari to`g`risidagi Konvensiya. 20.11.1989.

II. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari:

8. “Bolali oilalarga davlat ijtimoiy yordami tizimini takomillashtirish to`g`risida”gi O`zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-871-sonli Farmoni. 1994-yil 16-iyun.
9. “O`zbekiston Respublikasi Oila Kodeksini hayotga tadbqiq qilish chora tadbirlari haqida”gi O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 171-sonli Qarori. 1999-yil 12- aprel.
10. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 171-sonli qaroriga 2-Ilova. “O`zbekiston Respublikasida vasiylik va homiylik to`g`risida”gi Nizomi. 1999-yil 12-aprel.
11. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 171-sonli qaroriga 3-Ilova. “Voyaga yetmagan bolalarni farzandlikka va bolalarni oilaga tarbiyaga olish (patronat) to`g`risida”gi Nizomi. 1999-yil 12-aprel.
12. “Aholini ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini aniq yo`naltirilgan tarzda qo`llab-quvvatlashni kuchaytirish to`g`risida”gi O`zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-3017-sonli Farmoni. 2002-yil 25-yanvar.

13. O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligida 1189-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi Xalq Ta'limi Vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining "Tarbiyalash (patronat) uchun oilalarga beriladigan yetim bolalarni kiyim-bosh, poyafzal bilan ta'minlash hamda bolani o'z tarbiyasiga olgan tutingan ota-onalarga har oylik nafaqa to'lash tartibi to'g'risida"gi Nizomi. 2002-yil 18-noyabr.
14. "Ijtimoiy himoya yili" Davlat dasturi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-573-sonli Qarori. 2007-yil 23-yanvar.
15. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 158-sonli qaroriga Ilova. "Oilaviy bolalar uylari to'g'risida"gi Nizomi. 2007-yil 31-iyul.
16. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 179-sonli "Voyaga yetmagan bolalarni farzandlikka va bolalarni oilaga tarbiyaga olish (patronat) to'g'risidagi nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi Qarori. 2007-yil 21-avgust.
17. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 110-sonli qaroriga Ilova. "Vasiylik va homiylik organiga ota-onasining qarovsiz qolgan bolalar to'g'risidagi ma'lumotlarni taqdim etish tartibi haqida"gi Nizomi. 2008-yil 26-may.

III. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning asarlari:

18. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlool, iqtisod, siyosat, mafkura. -Jild.1 -T.: O'zbekiston, 1996.
19. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod vatan qolsin. -Jild.2 -T.: O'zbekiston, 1996.
20. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. -T.: O'zbekiston, 1997.
21. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot - pirovard maqsadimiz. -T.: O'zbekiston, 2000
22. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. -T.: Ma'naviyat, 2008.

23. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. -T.: O`zbekiston, 2011.
24. Karimov I.A. O`zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. -T.: O`zbekiston, 2012.

IV. Asosiy adabiyotlar:

25. Акимова М.Н. Организация работы с приёмными семьями. Самара. 1998.
26. Asqarova U. Mehribonlik uyi o`smirlarida milliy g`ururni tarbiyalashning pedagogik asoslari. ped.fan.nomz. ...dis. –Toshkent, 2001.
27. Axmedov D.K. O`zbekistonda davlat ijtimoiy himoyasi: huquqiy asoslari va takomillashtirish muammolari. yur.fan.dok. ...dis. –T.:TDYuI, 2007.
28. Дзенушкайте С.А. Наш дом. М., 1987.
29. Ganiyeva M.X. Ijtimoiy ish asoslari. Metodik qo`llanma. –T.: “CHASHMA PRINT”, 2010.
30. Ivanova N.P., Zavodilkina O.V. Дети в приёмной семье: Советы начинающим родителям. М., 1993.
31. Котли П. Новые приёмные родители (первый опыт). Новосибирск, 2000.
32. Nabiyeu F.H. Ijtimoiy siyosat. O`quv-uslubiy qo`llanma. –Samarqand. SamDU, 2007.
33. Прихожан А.М. Дети без семьи. М., 1989.
34. Raxmonov D.A. Ijtimoiy xizmat. Uslubiy qo`llanma. –Samarqand. SamDU, 2007.
35. Saidov A.X. Bola huquqlari monitoringi. O`quv-uslubiy qo`llanma. -T.: Inson huquqlari bo`yicha O`zbekiston Respublikasi Milliy Markazi, 2011.
36. Sobirova D.G`, Axundjanova S.A., Tadjiyeva S.X., Yuldasheva M.B. Bolalarni joylashtirishning muqobil shakllari kursi bo`yicha Xrestomatiya. –T.: “JAHON PRINT”, 2012.

37. To'xtamurodov E. Bolalar uylari tarbiyalanuvchilarini oilaviy hayotga tayyorlashning ijtimoiy va pedagogik asoslari. ped.f.n. ...dis. –T., 1994.
38. Xaydarov I.O. Mehribonlik uyida tarbiyalanuvchilar shaxsining individual ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. psixol.f.n. ...dis. –Toshkent, 1996.
39. Yuldosheva Sh., Qurbonov A. Ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar huquqlarini himoya qilish –T.: TDYuI, 2006.
40. O'zbekistonda patronat tarbiyaning tashkil etilishi va uning tahlili. Axundjanova S.A. tahriri ostida. RBIMM. -T., 2007.

V. Qo'shimcha adabiyotlar:

41. Антокольская М.В. Семейное право. -М.: Юрист. 2000.
42. Бернис Р. Развитие Я-концепции и воспитание. –М., 1986.
43. Бильсон Э., Харвин Д. Набор методических инструментов для внедрения кураторских функций в практику социальной работы с социально уязвимыми детьми и семьями. –М., 2003.
44. Фрейд А. Разлука с матерью. Лондон. 1965, перевод с. англ. –М., 1970.
45. Лангмейер Й., Матейчик З. Психическая депривация в детском возрасте. Прага, 1984.
46. Марокко А.Ю. Адаптация подростков, лишенных родительского попечительства, в структуре АЛБД. –М.: Просвещение. 1991.
47. Шипиц Р.А. Поведение депривированных детей. –М., 1991.
48. Zokirov I. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik huquqi. –T.: Adolat, 1996.
49. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. T.: O'zME Davlat ilmiy nashriyoti, 2002. –Jild. 4

VI. Ilmiy jurnallardagi maqolalar:

50. Irgasheva N., Mirashirova N. Ota-ona qaramog`isiz qolgan bolalar, ularni joylashtirish shakllari. Bola va zamon. №3. 2007. –B. 39-42
51. Sobirova D.G`. Qay biri ma`qul: Patronat oila yoki Mehribonlik uyi?// Bola va zamon. №3, 2006. –B.30-32
52. Tadjiyeva S.X. Yetim va ota-ona qaramog`isiz qolgan bolalarning ijtimoiylashuvi masalalari. // Bola va zamon. №1, 2010. -B.31-33.

VII. Internet saytlari:

53. www.lex.uz (O`zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma`lumotlari milliy bazasi sayti).
54. www.ziyonet.uz (Axborot Ta`lim Tarmog`i sayti).
55. www.fikr.uz (Qarashlar, Shaxslar va Jamiyat haqidagi sayt).

ILOVALAR

1-ilova

“Mamlakatimizda vasiylik va homiylik organlarining ota-ona qaramog`isiz qolgan bolalarni ijtimoiy himoyalashdagi o`rnini takomillashtirish” mavzusidagi SOTSIOLOGIK TADQIQOT DASTURI

Muammoning asoslanishi va tadqiqot mavzuining dolzarbligi. Bugungi kunda mamlakatimizda ota-ona qaramog`isiz qolgan bolalarni ijtimoiy himoyalash masalasi davlat siyosati darajasidagi masalalar qatoriga kirib bormoqda.

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ta`kidlaganidek, “Aholining muhtoj tabaqalarini ijtimoiy himoyalash sira kechiktirib bo`lmaydigan, eng ustuvor vazifa, amaliy harakatlarning eng asosiy qoidasi bo`lib keldi va shunday bo`lib qoladi”¹.

Mamlakatimizda ota-ona qaramog`isiz qolgan bolalar sonining ko`payish holati jamiyatimiz, davlatimiz kelajagiga salbiy ta`sir ko`rsatishi mumkin, chunki barcha bolalar davlatning, jamiyatning kelajagi hisoblanishadi. Ular voyaga yetishgach, o`sha davlatning, o`sha jamiyatning asosiy boshqaruvchilari bo`lishadi.

Bugungi kun ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarni, jumladan ota-ona qaramog`isiz qolgan bolalarni qo`llab-quvvatlashning muqobil shakllarini izlab topish hamda ularni hayotga keng tadbiq qilish masalasi ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga ega bo`lib borayotgan bir davrda ota-ona qaramog`isiz qolgan bolalarni oilaga tarbiyaga berish, ularni hayotga har tomonlama tayyorlashni talab etmoqda.

¹ Karimov I.A. O`zbekiston: milliy istiqlool, iqtisod, siyosat, mafkura. –Jild.1 –T.: O`zbekiston, 1996. –B. 323

Ota-ona qaramog`isiz qolgan bolalarni ijtimoiy himoyalash vazifasi turli darajadagi tashkilot va idoralarning diqqat e`tibori markazidagi masalalar qatoriga kirib bormoqda.

Bugungi kun mamlakatimizda ota-ona qaramog`isiz qolgan bolalarni ijtimoiy himoyalashda vasiylik va homiylik organlarining o`rnini oshirish masalasini samarali hal qilish uchun amaliy tadqiqotlarni amalga oshirishning dolzarbligini talab qilib, uni kun tartibiga qo`ymoqda.

Tadqiqotning maqsadi. Mamlakatimizda ota-ona qaramog`isiz qolgan bolalarni ijtimoiy himoya qilishda vasiylik va homiylik organlarining o`rni haqidagi fikr-mulohazalarni o`rganib, muammoning hozirgi kun holatiga, kamchilik va yutuqlariga baho berish asosida, ota-ona qaramog`isiz qolgan bolalarni ijtimoiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish va amaliyotga joriy etish.

Tadqiqot vazifalari:

- Bolalarning ota-ona qaramog`isiz qolib ketish sabablarini o`rganish;
- Ota-ona qaramog`isiz qolgan bolalarni ijtimoiy himoyalovchi muassasalarni faoliyatini o`rganish;
- Ota-ona qaramog`isiz qolgan bolalar bilan ijtimoiy ish olib borish amaliyotidagi yutuq va kamchiliklarini ko`rib chiqish;
- Mamlakatimizda ota-ona qaramog`isiz qolgan bolalarni ijtimoiy himoyalashning o`ziga xos xususiyatlarini sotsiologik tadqiq va tahlil qilish;
- Ota-ona qaramog`isiz qolgan bolalarni ijtimoiy himoyalashda vasiylik va homiylik organlarining o`rnini takomillashtirishga oid taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot predmeti sifatida mamlakatimizda ota-ona qaramog`isiz qolgan bolalarni ijtimoiy himoya qilish, ular bilan ijtimoiy ish olib borishda vasiylik va homiylik organlarining o`rnini ifoda etuvchi jarayonlar olindi.

**Tadqiqot ob`yekti** sifatida A.Navoiy nomidagi Samarqand davlat universiteti "Ijtimoiy ish" kafedrası talabalari, Samarqand shahar bandlikka ko`maklashish va aholini ijtimoiy muhofaza qilish markazi xodimlari, Samarqand shahar 9-son Mehribonlik uyi xodimlaridan vakillar olindi.

Terma: Kvotali.

Tadqiqot metodi. Tadqiqot tasodifiy-ehtimoliy saylanma asosida so`rov metodi qo`llanilgan holda A.Navoiy nomidagi Samarqand davlat universiteti, Samarqand shahar bandlikka ko`maklashish va aholini ijtimoiy muhofaza qilish qilish markazi hamda Samarqand shahar 9-son Mehribonlik uyida o`tkaziladi.

Tadqiqotning ilmiy farazi. Tadqiqotning ilmiy farazi shundan iboratki, tadqiqotlar asosida ota-ona qaramog`isiz qolgan bolalarni ijtimoiy himoyalashda vasiylik va homiylik organlarining o`rni takomillashtirish masalasida respondentlarning fikr-mulohazalarini olish o`rganilayotgan muammoning maqbul darajada hal qilinishiga olib keladi.

**Tadqiqotning ko`rsatkichlari.** Tadqiqot vazifalaridan kelib chiqib quyidagi ko`rsatkichlar aniqlandi:

- Bolalarning ota-ona qaramog`isiz qolib ketish sabablari bo`yicha ma`lumot olindi;
- Ota-ona qaramog`isiz qolgan bolalarni ijtimoiy himoyalovchi muassasalarni faoliyati haqida fikr-mulohazalar olindi;
- Ota-ona qaramog`isiz qolgan bolalar bilan ijtimoiy ish olib borish amaliyotidagi yutuq va kamchiliklari o`rganildi;
- Ota-ona qaramog`isiz qolgan bolalarni ijtimoiy himoyalashda vasiylik va homiylik organlarining o`rnini takomillashtirishga oid taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Empirik ma`lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilish usullari:

- Birlamchi va ikkilamchi ma`lumotlarni qayta ishlash;
- Kompyuterda qayta ishlash;
- Yakuniy tahlil;
- Xulosa va umumlashmalar;
- Tadqiqot yakunlarini taqdim qilish.

Tadqiqot yakunlarining loyihasi. Hisobot, ilmiy xulosa va tavsiyalar.

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI**

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

**“MAMLAKATIMIZDA VASIYLIK VA HOMIYLIK ORGANLARINING
OTA-ONA QARAMOG`ISIZ QOLGAN BOLALARNI IJTIMOY
HIMOYALASHDAGI O`RNINI TAKOMILLASHTIRISH”**

MAVZUSIDAGI

SOTSIOLOGIK TADQIQOT

SAVOLNOMASI

SAMARQAND-2015

ASSALOMU ALAYKUM!
HURMATLI RESPONDENT!

Ushbu so`rovnoma mamlakatimizda ota-ona qaramog`isiz qolgan bolalarni ijtimoiy himoyalashda vasiylik va homiylik organlarining o`rnini takomillashtirish masalasida ko`proq ma`lumot olish uchun o`tkazilmoqda. Siz bergan javoblar umumlashtirilgan holda o`rganiladi. Anketada o`rin olgan savollarga berilgan javob variantlaridan o`zingizga ma`qulining yoniga belgi qo`yishingizni so`raymiz. Bizga sizning fikringiz juda muhim hisoblanadi. Iltimos, savollarga to`liq va haqqoniy javob bering!

**So`rovning maqsadi:** Ota-ona qaramog`isiz qolgan bolalarni ijtimoiy himoya qilishda vasiylik va homiylik organlarining o`rni haqidagi fikr-mulohazalarni o`rganib, ota-ona qaramog`isiz qolgan bolalarni ijtimoiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish va amaliyotga joriy etish.

1. Sizningcha, oila baxti nimalarga bog`liq?

- A) Er-xotinning bir-birini tushunishiga
 - B) Erning sodiqligi, xotinning oqilligiga
 - C) Farzandlarning oilada to`g`ri tarbiyalanganligiga
- (Fikringiz)_____
-

2. Ota-ona qaramog`isiz qolgan bolalarni ijtimoiy himoyalashga taalluqli qanday milliy qonunchilik normalaridan xabardorsiz? (bir necha javoblarni belgilash mumkin)

- A) O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi
- B) O`zbekiston Respublikasining “Vasiylik va homiylik to`g`risida”gi Qonuni
- C) “O`zbekiston Respublikasida vasiylik va homiylik to`g`risida”gi Nizom
- D) “Voyaga yetmagan bolalarni farzandlikka va bolalarni oilaga tarbiyaga olish (patronat) to`g`risida”gi Nizom
- E) “Oilaviy bolalar uylari to`g`risida”gi Nizom

3. Mamlakatimizda ota-ona qaramog`isiz qolgan bolalarni ijtimoiy himoya qilishning qanday tizimlarini bilasiz? (bir necha javoblarni belgilash mumkin)

- A) Vasiylik va homiylik organlari orqali ijtimoiy himoyalash
- B) Farzandlikka olish orqali ijtimoiy himoyalash
- C) Patronat (oilaga) tarbiyaga berish orqali ijtimoiy himoyalash
- D) Mehribonlik uylariga topshirish orqali ijtimoiy himoyalash

4. Mamlakatimizda ota-ona qaramog`isiz qolgan bolalarni ijtimoiy himoya qiluvchi qanday muassasalarni bilasiz? (bir necha javoblarni belgilash mumkin)

- A) Vasiylik va homiylik organlari
- B) Mehribonlik uylari
- C) “Sen Yolg`iz Emassan” Respublika jamoatchilik bolalar jamg`armasi
- D) Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazi
- E) “SOS” bolalar mahallalari

5. Mamlakatimizda ota-ona qaramog`isiz qolgan bolalarni ijtimoiy himoya qiluvchi muassasalar faoliyatini qanday baholaysiz?

Javob variantlari	5. A`lo	4. Yaxshi	3. Qoniqarli	2.Qoniqarsiz
Vasiylik va homiylik organlari	5	4	3	2
Mehribonlik uylari	5	4	3	2
“Sen Yolg`iz Emassan” Respublika jamoatchilik bolalar jamg`armasi	5	4	3	2
Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazi	5	4	3	2
“SOS” bolalar mahallalari	5	4	3	2

6. Ota-ona qaramog`isiz qolgan bolalarga vasiy va homiy tayinlash hamda ularni farzandlikka, oilaga tarbiyaga berish tartibidan xabardormisiz?

- A) Ha, bu haqida yetarli ma`lumotga egaman
- B) O`rtacha, bu haqida umumiy ma`lumotlarga egaman
- C) Yo`q, deyarli hech qanday ma`lumotga ega emasman

7. Sizningcha, bolalarning tarbiyasida quyida keltirilganlardan qaysi biri ko`proq mas`ul?

- A) Oila
- B) Mahalla
- C) Maktab

(Fikringiz)_____

8. Sizningcha, ota-ona qaramog`isiz qolgan bolalar qayerda tarbiya olgani ma`qul?

- A) Oilada

- B) Mehribonlik uylarida
 C) SOS bolalar mahallalarida
 (Fikringiz)_____
-

9. Sizningcha, bolalarning ota-ona qaramog`isiz qolib ketish sabablari nimalardan iborat?

- A) Ota-onalarning bolalarni tarbiyalashga tayyor emasligi
 B) Ota-onalarning bolalarni tarbiyalashga mas`uliyat bilan yondashmasligi
 C) Oiladagi iqtisodiy yetishmovchilik
 D) Ota-onalarni pul ishlash maqsadida xorijga chiqib ketishi
 (Fikringiz)_____
-

10. Sizningcha, mamlakatimizda ota-ona qaramog`isiz qolgan bolalarni ijtimoiy himoyalashda vasiylik va homiylik organlarining o`rnini oshirish uchun nimalar qilish lozim?

(Fikringiz)_____

DEMOGRAFIK BO`LIM:

1. Yoshingiz:

- A) 18-25 yosh
 B) 26-30 yosh
 C) 31-45 yosh
 D) 46-60 yosh
 E) 61 yosh va undan ortiq

2. Jinsingiz: A) Erkak B) Ayol

3. Millatingiz: _____

4. Ma`lumotingiz:

- A) Oliy
- B) Tugallanmagan oliy
- C) O`rta-maxsus
- D) O`rta

5.Bandlik: _____

HURMATLI RESPONDENT!
SAVOLLARGA QIMMATLI VAQTINGIZNI AYAMAY,
ANIQ VA XOLISONA JAVOB BERGANINGIZ UCHUN
O`Z MINNATDORCHILIGIMIZNI BILDIRAMIZ!